

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI SHARQ  
FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu:** Fors tilida ad’ektivatsiya  
(Fe’lning shaxssiz shakllarini sifatga aylanishi)  
5220100 – filologiya (sharq tillari)

**Bajardi:** Filologiya (sharq tillari)  
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabasi  
Arifdjanov Zokir Toxirovich \_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:** “Eron-afg‘on filologiyasi”  
kafedrasi professori, fil.f.d. Quronbekov A.  
\_\_\_\_\_

Fe’lning shaxssiz shakllaridan yasalgan sifatlar struktur va semantik tahlil qilindi, hamda ular ro‘yxatga olindi. Ushbu tadqiqotdan “Fors tili” darslarida va “Fors tili so‘z yasalishi” maxsus kursida, hamda lug‘at tuzishda foydalanish mumkin.

Toshkent-2012

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Sharq filologiyasi va falsafa”

fakulteti dekani

f.f.n., dots. J.T. Ziyamuhamedov

“ ” \_\_\_\_\_ 2012yil

“Eron-afg‘on filologiyasi”

kafedrası mudiri

f.f.n., dots. X.Z. Alimova

“ ” \_\_\_\_\_ 2012yil

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	
<b>IBOB. AD’EKTIVATSIYA HAQIDAGI QARASHLAR</b> .....	
1.1. Eronshunos olimlarning transpozitsiya hodisasiga qarashlari.....	
1.2. Konversiya haqidagi qarashlar.....	
<b>II BOB. FE’LNING SHAXSSIZ SHAKLLARIDAN YASALGAN SIFATLAR</b> .....	
2.1. O‘tgan zamon sifatdoshlarining sifatga aylanishi.....	
2.2. Hozirgi zamon sifatdoshlarining sifatga aylanishi.....	
2.2.1. انه -ande suffiksi orqali yasalgan sifatdoshlar ad’ektivatsiyasi.....	
2.2.2. ا -ā suffiksi orqali yasalgan sifatdoshlar ad’ektivatsiyasi.....	
2.2.3. ان -ān suffiksi orqali yasalgan sifatdoshlar ad’ektivatsiyasi.....	
2.3. Kelasi zamon sifatdoshlarining sifatga aylanishi.....	
2.4. Arabiy sifatdoshlarning sifatga aylanishi.....	
<b>XULOSA</b> .....	
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI</b> .....	

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng hukumatimiz xorijiy tillarni o'rganishga keng yo'l ochib berdi. Chunonchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir"<sup>1</sup>.

Hozirgi kunda yurtimizda g'arb tillari bilan birgalikda sharq tillarini o'rganishga ham katta e'tibor berilmoqda. Xususan, fors tilini o'rganish, mazkur til bo'yicha ilmiy izlanish olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bitiruv malakaviy ishi hozirgi fors tilidagi transpozitsiya, konversiya hodisalari, xususan, fe'liy shakllarning (sifatdoshlarning) ad'ektivatsiyasiga bag'ishlanadi.

Iqtisodiy va siyosiy hayotdagi o'zgarishlar, ilm-u fan, texnika, adabiyot va san'atning jadallik bilan rivojlanishi, kitoblar, gazeta va jurnallar nashrining ortishi, xorij matbuot va radiosi ta'siri – bularning barchasi fors tili lug'at tarkibining yangilanishiga sabab bo'lgan va bo'layapti. Leksika boyimoqda va o'zining leksik materiallari asosida va o'zlashmalar, ayniqsa G'arbiy Yevropa tillari hisobiga yangi so'zlar hosil bo'lishi yo'li bilan rivojlanmoqda<sup>2</sup>.

Lug'at tarkibi boyishining asosiy manbai sifatida uning ichki resurslari – turli xil so'z yasash usullari (so'z yasalishining oddiy – affiksatsiya va murakkab so'z yasash usuli. Bu yo'l orqali odatda, ot va sifat so'z turkumlari shakllanadi), qo'shma so'zlar leksikalizatsiyasi va so'z ma'nolarining o'zgarishi, bir so'z turkumining boshqasiga o'tishi. Bu holatda so'z nafaqat yangi ma'noni, balki yangi grammatik xususiyatlarni ham oladi. Bu holat ayniqsa sifat va ot so'z turkumlariga o'tadigan o'tgan zamon sifatdoshlariga xosdir. Shuningdek

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Т.: Шарқ, 1997. - Б.185.

<sup>2</sup> Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – Т.: 2009. - Б.15.

L.S.Peysikov arabcha boblar bilan yasalgan soʻzlarni ham fors tilida soʻz yasash jumlasiga kiritadi. Ammo shuni aytish kerakki bu usulda soʻz yasash hozirgi kunda amalda qoʻllanmaydi. Arab tilidagi ot va feʼliy soʻzlar tayyor holda oʻzlashtirilgan<sup>3</sup>. Lugʻat tarkibining boyishida fors tilidagi transpozitsiya alohida ahamiyatga egaligini ham taʼkidlash zarur.

Fors tilining qadimgi va oʻrta davrdagi soʻz yasalishi jarayonlari va bu jarayonda qaysi bir soʻz yasash usuli yetakchi boʻlganligi hali oxirigacha oʻrganilmagan. Fors tilida soʻz yasash va oʻzlashtirmalar orqali lugʻat boyishi bilan bir qatorda mavjud soʻzlarning maʼno oʻzgarishi roʻy berib kelgan<sup>4</sup>. Shu oʻrinda fors tili sifatdoshlari va arabiy sifatdoshlar ham adʼektivatsiyaga uchragan taqdirda aksariyat hollarda ularning maʼnolari kengayishi yoki boshqa maʼnoni kasb etishini ham taʼkidlash zarur.

Qadimgi fors va Avesto tillarida katta ahamiyatga ega boʻlmagan va chegaralangan karakter kasb etgan transpozitsiya, oʻrta fors tili davridan boshlab asta-sekin rivojlana boshladi, yangi fors tili davrida esa keng tarqaldi. Koʻplab umumiy va alohida transpozitsion modellar (ayniqsa, konversion modellar) yuzaga kelishi natijasida, soʻz yasash munosabatlari jadal rivojlandi va soʻz turkumlari sezilarli darajada yangi leksik birliklar hisobiga boyidi. Birgina yangi fors tili davrida oʻnlab otlardan feʼllar, feʼllardan otlar, sifatdoshlardan otlar-sifatlar, sifatlardan ravishlar, feʼl va boshqa soʻz shakllaridan modal soʻzlar, otlardan old koʻmakchilar paydo boʻldi<sup>5</sup>.

**Mavzuning oʻrganilganlik darajasi.** Biz tanlagan BMI mavzusi oʻzbek, rus va eronlik tilshunoslar tomonidan turli darajada oʻrganilgan.

Tadqiqot davomida “transpozitsiya” atamasi turli lingvistik adabiyotlarda turlicha nomlanganining guvohi boʻldik. Masalan, L.S. Peysikovning monografiyasida<sup>6</sup> «транспозиция, безаффиксное словообразование»,

---

<sup>3</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк персидского языка. В кн.: Персидско – русский словарь, в 2-х томах. М.: Русский язык, 1983. - С.812,813.

<sup>4</sup> Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. - T.: 2009. - B.15.

<sup>5</sup> Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. - М.: Изд. МГУ, 1975. - С.92.

<sup>6</sup> Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. - М.: Изд. МГУ, 1973. Б.121.

N.M.Shanskiyning asarida<sup>7</sup> “безаффиксный способ словообразования” hamda «трансформация» atamolari qo‘llanilsa, Eron dasturnavis olimi Muhammad Rezo Boteniy o‘zining maqolasida<sup>8</sup> «گذر از یک مقوله به دیگر» deb ta’rif beradi. Bundan tashqari doctor Muhammad Falloqning lug‘atida<sup>9</sup> *transposition* - جا به جائی deb berilganligining va boshqa eron dasturnavislarining asarlarida bu atama umuman ishlatilmaganligining guvohi bo‘ldik.

Ad’ektivatsiya bo‘yicha L.P. Kalakutskayaning<sup>10</sup> “адъективация причастий в современном русском литературном языке” asarida sifatdoshlarning sifatga aylanishi haqida ma’lumot beriladi. Bundan tashqari yuqorida zikr etilgan rus va eron tilshunos olimlarining transpozitsiya, konversiyaga bag‘ishlangan asarlarida ham ad’ektivatsiya hodisasiga to‘xtalinadi.

O‘zbek tilida ad’ektivatsiya haqida kengroq ma’lumot beriladigan ishlar qo‘limizga tushmadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Mazkur mavzuda ilmiy izlanishlar olib borishimizdan maqsad transpozitsiyaning sifatdosh-sifat konversion usuli orqali ro‘y bergan ad’ektivatsiya jarayonini tadqiq etishdan iborat.

Maqsaddan quyidagi vazifalar kelib chiqadi:

- a) fors tilshunosligidagi tranzpozitsiya hodisasi haqidagi qarashlarni o‘rganish;
- b) tilshunoslar tomonidan ad’ektivatsiya hodisasi haqidagi bildirilgan nazariy qarashlarni tadqiq qilish;
- c) fors manbalari asosida ad’ektivatsiyaga uchragan sifatdoshlarni kartotekaga olish va to‘plangan so‘zlarni guruhlashtirish;
- d) ad’ektivatsiya hodisasiga uchragan sifatdoshlarning qaysi turi sermahsulligini aniqlash;
- e) tadqiqot so‘ngida olingan natijalar asosida ilmiy xulosalarni bayon etish.

<sup>7</sup> Шанский Н.М. Очерки по русскому словообразованию. - М.: 1968. - С.284.

<sup>8</sup> محمد رضا باطنی. فارسی زبان عقیم؟ مقاله از مجموعه مقالات "پیرامون زبان و زبان شناسی"، تهران 1371/1997، ص. 66.

<sup>9</sup> محمد فلاقی مقیمی. فرهنگ زبان شناسی و زبان آموزی. تهران 1376/1998، ص. 406.

<sup>10</sup> [www.openlibrary.org/OL10628368W/Ad\\_ektivatsiya\\_prichastii\\_v\\_sovremennom\\_russkom\\_literaturnom\\_yazyke](http://www.openlibrary.org/OL10628368W/Ad_ektivatsiya_prichastii_v_sovremennom_russkom_literaturnom_yazyke)

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi.** Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosi sifatida rus tilshunoslaridan L.S.Peysikov<sup>11</sup>, Yu.A.Rubinichik<sup>12</sup>, N.M.Shanski<sup>13</sup>, K.A.Timofeyev<sup>14</sup>, eron olimlaridan Muhammad Rezo Boteniy<sup>15</sup>, Muhammad Fallox<sup>16</sup>, o‘zbek tilshunoslaridan A.Quronbekov<sup>17</sup>, A.A.Vohidov<sup>18</sup>, X.Z.Alimovalarning<sup>19</sup>, M.Asqarova, R.Yunusov, M.Yo‘ldoshev, D.Muhamedova<sup>20</sup>, leksikologiya, sintaksis va so‘z yasalish sohalariga oid ishlari xizmat qildi.

**Bitiruv malakaviy ishining manbalari.** Bitiruv malakaviy ishimizga manba sifatida Hasan Karimpurning “باغ مارشال”, Muhammad Husayn Kiyonpurning “ستاره طوس” va Ismoil Fasihning “دل کور” romanlari olindi. Shu bilan birga A.Najafiyning “فرهنگ عامیانه” va Yu.A.Rubinichik tahriri ostida chop etilgan 2 tomlik “Персидско-русский словарь”dan foydalandik.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Fe’lning shaxssiz shakllaridan yasalgan sifatlar struktur va semantik tahlil qilindi, hamda ular ro‘yxatga olindi. Ushbu tadqiqotdan “Fors tili” darslarida va “Fors tili so‘z yasalishi” maxsus kursida, hamda lug‘at tuzishda foydalanish mumkin.

**BMI tuzilishi.** BMI kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyot va manbalar ro‘yxatidan iborat.

Mazkur BMI uchun fors manbalari asosida to‘plangan misollar soni 242 tani tashkil etdi.

<sup>11</sup> Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. - М.: Издательство института международных отношений, 1959.; Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. МГУ, - М.: 1973.

<sup>12</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001;

Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк персидского языка. В кн.: Персидско – русский словарь, в 2-х томах. - М.: Русский язык, 1983.

<sup>13</sup> Шанский Н.М. Очерки по русскому словообразованию. - М.: 1968. - С. 284.

<sup>14</sup> Тимофеев К.А. О транспозиции временных форм глагола в русском языке. – История языка. – Новосибирск, 1999. - С.3-7

<sup>15</sup> محمد رضا باطنی. فارسی زبان عقیم؟ مقاله از مجموعه مقالات "پیرامون زبان و زبان شناسی"، تهران 1371/1997، ص. 66.

<sup>16</sup> محمد فلاحی مقیمی. فرهنگ زبان شناسی و زبان آموزی. تهران 1376/1998، ص 406.

<sup>17</sup> Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. - T.: 2009.

<sup>18</sup> Вахидов А.А. Причастия в современном персидском языке (функционально-грамматический анализ): Дис. ... канд. фил. наук. – М. 1990.

<sup>19</sup> Алимова Х.З. Сўз ясовчи транспозиция масаласига доир “дарий тили материаллари асосида” // шарқшунослар анжумани. – Т.: 2010 №4. 6-11 бет.

<sup>20</sup> Asqarova M., Yunusov R., Yo‘ldoshev M., Muhamedova D. O‘zbek tili praktikumi. – T.: Iqtisod-moliya. 2006.

## I BOB. AD'EKTIVATSIYA HAQIDAGI QARASHLAR

Ushbu bobda transpozitsiya, konversiyaga ta'riflar beriladi, olimlarning fikrlari keltiriladi, so'z yasalishi jarayonida transpozitsiyaning ahamiyati va uning muammolari yoritiladi.

### 1.1. Eronshunos olimlarning transpozitsiya hodisasiga qarashlari

Transpozitsiya ( lot. *Transpositio* – o'rin almashtirish ) usuli – so'zlarning bir so'z turkumidan ikkinchisiga o'tishi va yangi ma'no kasb qilishidir. Fors tilida so'z turkumlari orasida chegara qat'iy bo'lmaganligi va so'zlar bir so'z turkumidan ikkinchisiga osonlikcha o'tishini nazarga olsak, bu usulda yasalgan so'zlarning ancha boyligini va hozirgacha bunday jarayon davom etib kelayotganini e'tirof etishga to'g'ri keladi<sup>21</sup>.

Transpozitsiya grammatik kategoriyalarning o'ziga xos bo'lmagan vazifada qo'llanishi, masalan, bir turkum so'zining matnda boshqa turkum so'zi kabi qo'llanishi, deb baholanadi<sup>22</sup>.

O.S.Ahmanovanning “Словарь лингвистических терминов” lug'atida Transpozitsiya “gipostazis” termini ostida bir so'z turkumining boshqa so'z turkumiga konversiya vositasida keng ma'noda (substantivatsiya va ad'ektivatsiyani o'z ichiga olgan holda) ko'chishi, deb izohlanadi<sup>23</sup>.

Transpozitsiya so'z yasalishi jarayonida so'zning bir turkumdan (bir leksik-grammatik kategoriyadan) boshqasiga o'tishini bildiradi. Tilshunoslikda bu hodisa affikssiz so'z yasalishi deb ham yuritiladi”. Affikssiz so'z yasalishini nol elementning qo'shilishi jarayonidagi hodisa deb tasavvur qilish kerak emas, chunki jarayonning mohiyati o'zak-asosning kengayishi yoki torayishida emas, balki uning qayta tushunilishida (anglashda), shu sababli uning *conversio*, ya'ni “boshqa narsaga aylanish (o'zgarish) deb nomlanishi bejiz emas”<sup>24</sup>.

<sup>21</sup> Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. - T.: 2009. - B.18

<sup>22</sup> Xojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б.51.

<sup>23</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Издательства «Советская энциклопедия», 1966. - С.202.

<sup>24</sup> Алимова Х.З. Сўз ясовчи транспозиция масаласига доир “дарий тили материаллари асосида” // шарқшунослар анжумани. – Т.: 2010 №4. 6-11 бет. – Б.6.

Транспозитсия тushunchasi so‘z yoki asosning bir so‘z turkumidan boshqasiga o‘tish mexanizmini ifodalash uchun birinchi marta o‘tgan asrning 30-yillarida fransuz lingvisti Sh.Balli tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan: “Biz o‘z kategoriyasiga xos ma’nomlarni saqlab qolgan holda boshqa kategoriyaga oid ramz rolini o‘ynayotgan lingvistik ramz транспозитsiyasi haqida gapirmoqdamiz”<sup>25</sup>.

U транспозитsiyaning 2 tipini farqlaydi:

1) ramzning leksik ma’nosi o‘zgarmagan holda boshlang‘ich sintaktik vazifasining o‘zgarishi – funksional транспозитsiya;

2) so‘zning sintaktik vazifasi bilan parallel ravishda yangi leksik ma’no kasb etishi – semantik транспозитsiya.

Keyinchalik bu 2 tip leksik va sintaktik derivatsiya (ingliz. derivation, affiksial so‘z yasalishi. Shu tilga xos bo‘lgan so‘z yasash modellariga muvofiq, affikslar orqali yangi so‘zlar yasalishi<sup>26</sup>) sifatida taqqoslandi.

L.S.Peysikov транспозитsiyaning umumiy modelini quyidagi formula bilan belgilashni tavsiya etadi:

$$O(C)1 \rightarrow \Phi D \rightarrow O(C)2 + \Pi z;$$

Bu yerda  $O(C)1$  - birlamchi asos yoki so‘z shakli,  $\Phi D$  - vazifalarning to‘liq sistemasi va yangi hosil bo‘lgan so‘zga xos distributsiya,  $O(C)2$ -dastlabki so‘zga nisbatan boshqa so‘z turkumiga tegishli yangi so‘z,  $\Pi r$  - yangi hosil bo‘lgan so‘zning paradigmasi. Agar paradigma ishtirok etmasa, model oxiridagi  $\Pi r$  tushirib qoldiriladi<sup>27</sup>.

Ma’lumki, so‘z turkumlari orasidagi ko‘chish faqat so‘z yasalishi deb baholanmaydi. Ko‘chish masalasida:

1) bir turkumdagi so‘zning boshqa turkum ma’nosida qo‘llanishi faqat kontekstning kuchi bilan bo‘lganmi yoki;

2) shu so‘z ayrimlik holida ham boshqa turkumning belgilarini saqlaydimi, degan savol o‘tgan asrning o‘rtalaridayoq o‘zbek tilshunosligida ham o‘rtaga

<sup>25</sup> Алимova X.З. Сўз ясовчи транспозиция масаласига доир “дарий тили материаллари асосида” // шарқшунослар анжумани. – Т.: 2010 №4. 6-11 бет. – Б.7.

<sup>26</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Издательства «Советская энциклопедия», 1966. - С.129.

<sup>27</sup> Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. - М.: Изд. МГУ, 1973. - С.121.

tashlangan. Pirovardida substantivatsiya hodisasida leksik va sintaktik otlashish holatlari o‘zaro farqlanishi ko‘rsatilgan edi. Yuqorida keltirilgan model so‘z yasovchi (to‘liq) transpozitsiyani funksional (to‘liqsiz) transpozitsiyadan farqlashda asosiy omil hisoblanadi.

To‘liqsiz transpozitsiyada modelning  $\Phi\Delta$  qismi amalda bo‘lmaydi. Masalan, bu holatni sifat  $\rightarrow$  ot munosabatlarida kuzatadigan bo‘lsak, to‘liq transpozitsiyaga بارانی *bārāni* ‘yomg‘irli’, ‘yomg‘ir(ga oid)’  $\rightarrow$  بارانی *bārāni* ‘plash’: bu ma‘no klassik fors tilida qayd qilingan, قره قلی *qarāqoli* ‘qorako‘l(ga oid)’  $\rightarrow$  قره قلی *qarāqoli* ‘qorako‘l telpak’, نانوی *nānvāyi* ‘non pishirish (yopish)ga oid’  $\rightarrow$  نانوی *nānvāyi* ‘novvoyxona’, پوستین *pustin* ‘po‘stindan qilingan’, ‘yungli’  $\rightarrow$  پوستین *pustin* ‘po‘stin’, ‘dublyonka’, دوبیتی *dobayti* ‘ikki baytli’  $\rightarrow$  دوبیتی *dobayti* ‘to‘rtlik’ kabi sifatlarning otga ko‘chishi misol bo‘lsa, to‘liqsiz transpozitsiyaga sifatlarning kvazisubstantiv ishlatilishi misol bo‘la oladi: بزرگ *bozorg* ‘katta’, ‘ulug‘  $\rightarrow$  بسیاری *besyāri* ‘ulug‘ (shaxs)larning ko‘pchiligi’. Bunda ular otlik paradigmasini qabul qilsa-da, o‘z (sifat) so‘z turkumi doirasida qoladi. To‘liqsiz transpozitsiya funksional – sintaktik hodisa bo‘lib, so‘z yasalishi bo‘limida o‘rganilmaydi, yoki faqat qiyosiy material sifatida ko‘rib chiqiladi. Ko‘rinadiki, to‘liq transpozitsiyada qisman omonimiya, to‘liqsiz transpozitsiyada polisemiya haqida gap ketadi<sup>28</sup>.

Manbalarda transpozitsiya hodisasining o‘rta fors tili davridan boshlab asta-sekin rivojlangani va yangi fors tili davrida keng ko‘lamda tarqalgani qayd qilinadi. Ko‘plab umumiy va xususiy transpozitsion modellar (ayniqsa, conversion modellar) yuzaga kelishi natijasida so‘z turkumlariaro so‘z yasash munosabatlari jadal rivojlandi va ular tarkibi sezilarli darajada yangi leksik birliklar hisobiga boyidi.

Transpozitsiya formulasi so‘z yasaliş jarayonini diaxronik (so‘zning bir leksik-grammatik kategoriyadan ikkinchi leksik-grammatik kategoriya tomon siljishi) va sinxronik (so‘zning bir turkumdan boshqasiga o‘tishining muntazam

---

<sup>28</sup> Qarang: Алимova X.3. Сўз ясовчи транспозиция масаласига доир “дарий тили материаллари асосида” // шарқшунослар анжумани. – Т.: 2010 №4. 6-11 бет. – Б.8,9.

ko‘rinishlari) jihatdan ifodalaydi. Bular o‘rtasiga qat’iy chegara qo‘yish mushkul. Transpozitsiya hodisasining leksik (so‘z yasalishi) va grammatik planlarda qaralishi bejiz emas. Bunda leksik planda yangi ma’nodagi leksik birliklarning vujudga kelishi, grammatik planda esa boshqa turkumdagi so‘zning o‘zga sintaktik funktsiya bajarishi nazarda tutiladi (leksik so‘z va grammatik so‘z). Ma’lumki, ko‘chayotgan so‘zlarda dastlab yangi semantika vujudga kelmaydi, bir xil nomemalik xususiyati saqlanaveradi: bir nomema ikki leksemani ifodalaydi. Boshqa turkumga xos grammatik (aniqrog‘i, sintaktik) xususiyat uning funktsiyasiga qo‘shimcha tarzda yuklanadi. Shuning uchun transpozitsiya hodisasining dastlabki bosqichida asosan sintaktik (grammatik) xususiyat ustun bo‘ladi. Transpozitsiya holatida qo‘llanadigan so‘z keyinchalik o‘zining so‘nggi – ko‘chgan grammatik funktsiyasida qat’iylashsa, semantikasida yangi ma’nolar vujudga kelsa, u “yangi so‘z” bo‘lib tanilishi mumkin<sup>29</sup>.

So‘z turkumlari transpozitsiyasi morfologiya bilan sintaksisning, leksikologiya bilan so‘z yasalishining kesishgan nuqtalarida turadi; til strukturasi turli aspektlariaro aloqadorligini va til sathlariaro munosabatlarning murakkab chatishuvini belgilab beradi. Transpozitsiya va uning so‘z yasalish sistemasidagi o‘rni fanda kam o‘rganilgan. Transpozitsiya terminining turlicha nomlanishi esa uning munozarali mavzu ekanini bildiradi.

Transpozitsiyaning diaxron va sinxron ko‘chish hodisalari, til sathlarida ko‘chishga olib keluvchi ichki va tashqi omillar, ko‘chish hodisasini o‘rganishning asosiy metodlari, ko‘chish shartlari va hokazo masalalar o‘z yechimini to‘la topmagan<sup>30</sup>.

---

<sup>29</sup> Алимова Х.З. Сўз ясовчи транспозиция масаласига доир “дарий тили материаллари асосида” // шарқшунослар анжумани. – Т.: 2010 №4. 6-11 бет. – Б.10,11.

<sup>30</sup> O‘sha maqola: – Б.11.

## 1.2. Konversiya haqidagi qarashlar

Transpozitsiya usulida soʻz yasashning keng tarqalgan usullaridan biri – konversiya usulidir<sup>31</sup>. Konversiya (lot. *conversio* – aylanish, oʻzgarish). Soʻzning fonetik va morfologik jihatdan oʻzgarmay, bir soʻz turkumidan boshqa bir soʻz turkumiga oʻtishi, shu yoʻl bilan yangi soʻz hosil boʻlishi<sup>32</sup>.

L.S.Peysikov konversiya hodisasiga transpozitsiyaning alohida qismi sifatida qaraydi: “Paradigma (soʻz oʻzgartish formalari sistemasi)ga ega boʻlmagan soʻz turkumlarining oʻzaro munosabatlarida konversiya haqida gapirishga hojat yoʻq, chunki konversiya transpozitsiya usuli bilan soʻz yasashining muayyan qisminigina ifodalaydi<sup>33</sup>”.

Transpozitsiya va konversiya tushunchalari haqida gap ketganda, Ye.S. Kubryakovaga tayangan holda, quyidagilarni aytish mumkin: “Transpozitsiya va konversiya tushunchalarining oʻzaro munosabati anchagina murakkab, biroq pirovardida konversiyani soʻz yasash xususiyatiga ega boʻlgan morfologik transpozitsiya sifatida qabul qilish mumkin<sup>34</sup>”.

Afgʻonshunos olimi L.N.Kiselyova konversiya hodisasini semantik usul bilan soʻz yasashiga (maʼno oʻzgarishi orqali yangi soʻzning hosil boʻlishi) kiritadi<sup>35</sup>. Semantik (leksik-semantik) usul bilan soʻz yasashi deganda shakllning leksik maʼno kasb etishi natijasida yangi soʻz (leksema)ga aylanishi bilan yangi soʻz hosil boʻlishi, koʻp maʼnoli soʻzning maʼnolari oʻrtasidagi bogʻlanishning (semantik aloqaning) yoʻqolishi natijasida yangi leksema hosil boʻlishi tushuniladi<sup>36</sup>. X.Z.Alimova transpozitsiyaga bagʻishlangan maqolasida “Bizningcha, kategorial koʻchish yoʻli bilan soʻz yasashini transpozitsiya usuli

---

<sup>31</sup> Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. - T.: 2009. - B.18.

<sup>32</sup> Ҳоҗиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 51.

<sup>33</sup> Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд. МГУ, 1973. - С.123

<sup>34</sup> Кубрякова Е.С. Теория номинации и словообразование // Языковая номинация (Виды наименований). – М.: Наука, 1977. – С. 292.

<sup>35</sup> Qarang: Alimova X.Z. Sўz yasovchi transpozitsiya masalasiga doir “dariy tili materiallari asosida” // шарқшунослар анжумани. – Т.: 2010 №4. 6-11 бет. – Б.6.

<sup>36</sup> Oʻsha maqola: - Б.6.

deyish maqsadga muvofiq” deb fikr bildiradi<sup>37</sup>. O‘zbek tilshunosligida mazkur hodisa uchun “konversiya” termini qo‘llaniladi.

Konversiya masalasi 1-marta A.I.Smirnitskiyning ishlarida yoritilgan. U “konversiyada so‘z yasovchi vosita faqat so‘z paradigmasidan iborat bo‘ladi” deydi. Bu talqin O.S.Ahmanovanning “Словарь лингвистических терминов” lug‘atida “konversiya” sharhida o‘z aksini topgan<sup>38</sup>.

Transpozitsiya konversiyaga qaraganda kengroq tushunchani anglatadi. Masalan, konversiya – paradigma vositasida so‘z yasash usuliga ko‘ra: چرخ *čarx* “g‘ildirak”(ot - asos) fe‘l paradigmasini qabul qilib, چرخیدن *čarxidan* “aylanmoq”, آرام *ārām* “tinchlik”, “orom”(sifat-asos) orqali, آرامیدن *ārāmidan* 1) “orom olmoq”, 2) “tinch yotmoq” (jasad haqida) fe‘llari yasaladi.

Biroq paradigmaga ega bo‘lmagan so‘z turkumlarida: پاک *pāk* “toza”, “ozoda”, “pok” sifat so‘z turkumiga oid so‘z (دل پاک *del-e pāk* “yuragi toza”, “dili pok”) ravish vazifasida ham keladi: bunda پاک *pāk* “butunlay”, “boshdan-oyoq” ma’nolarini bildiradi:

او پاک دیوانه شد *u pāk divāne šod* - “U butunlay aqldan ozdi”<sup>39</sup>.

Ayni vaqtda bu hodisaga doir tilshunoslikda umuman bir biriga zid qarashlar mavjud: ba’zi olimlar konversiyani til lug‘at tarkibining semantik boyishi usuliga kiritishsa, boshqalari esa konversiyani so‘z yasash usullari sifatida ko‘rib chiqishadi. Konversiyani so‘z yasash usuli sifatida o‘rgangan va o‘rganayotgan olimlar: A.I.Smirnitskiy, M.D.Stepanova, E.A.Zemskaya, V.G.Gak, Y.S.Kubryakova, N.N.Lopatnikova, G.G.Sokolova va yana bir qator rus olimlari o‘zlarining kandidatlik dissertatsiyalarini konversiyaning muammolariga bag‘ishlaganlar. Xorij olimlaridan D.Korben, M.-F.Mortryue va F.Marten-Bertelar ham konversiyani so‘z yasash nuqtai nazaridan o‘rganadilar<sup>40</sup>.

Birinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

<sup>37</sup> Алимова Х.З. Сўз ясовчи транспозиция масаласига доир “дарий тили материаллари асосида” // шарқшунослар анжумани. – Т.: 2010 №4. 6-11 бет. - Б.6.

<sup>38</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Издательства «Советская энциклопедия», 1966. - С.202.

<sup>39</sup> Qarang: Алимова Х.З. Сўз ясовчи транспозиция масаласига доир “дарий тили материаллари асосида” // шарқшунослар анжумани. – Т.: 2010 №4. 6-11 бет. – Б.7.

<sup>40</sup> [www.dissercat.com/content/rol-konversii-kak-sposoba-slovoobrazavaniya-v-sovremennom-frantsuzskom-yazyke-na-materiale-n...](http://www.dissercat.com/content/rol-konversii-kak-sposoba-slovoobrazavaniya-v-sovremennom-frantsuzskom-yazyke-na-materiale-n...)

1) Faqat to'la ma'noli so'z turkumlarigina ma'no o'zgaruvchanligiga moyil bo'ladi. (konversiya – ad'ektivatsiya hodisasiga uchraydi).

2) So'z semantikasining kengayishi orqali yangi va qo'shimcha ma'no ifodalanadi va bu holatda so'z nafaqat yangi ma'noni, balki yangi grammatik xususiyatlarni ham oladi. Aksar hollarda yangi ma'no kasb etadi, hatto ba'zi hollarda yangi ma'no birlamchi ma'nodan semantik uzilib, omonim so'zlar shakllanishi ham mumkin.

3) So'zning fonetik tizimi saqlangan holda, uning ma'no tarkibi o'zgarib boradi va bu ma'no o'zgarishlari bir paytda turli tushunchalarni ifodalaydigan so'zlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

## II BOB. FE'LNING SHAXSSIZ SHAKLLARIDAN YASALGAN SIFATLAR

Ushbu bobda fe'liy shakllardan yasalgan so'zlar, ya'ni o'tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon sifatdoshlari, hamda arabiy sifatdoshlarning sifatga transpozitsiya bo'lishi tadqiq qilinadi. Hozirgi zamon sifatdoshlari 3 ga, ya'ni  $\bar{a}$ ,  $\bar{an}$ , va  $\text{انده} -\text{ande}$  suffikslari orqali yasalgan sifatdoshlariga ajratilib, alohida tarzda tadqiq etiladi. Ushbu shakllar transpozitsiyaning keng tarqalgan usullaridan biri bo'lgan konversiyaning sifatdosh-sifat modeli orqali ad'ektivatsiya hodisasiga uchrashi olimlarning fikrlari, hamda misollar orqali isbotlanadi.

Fe'lning shaxssiz shakllari (sifatdoshlar)ning sifatga ko'chishi fors tilidagi o'ta keng tarqalgan hodisa bo'lib, bu hodisa so'z yasalishi, funksional o'zgarishi va ma'no o'zgarishlari nuqtai nazaridan o'rganilmaganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Sifat so'z turkumi ichida, shakli jihatidan ko'pgina o'tgan zamon sifatdoshi bo'lgan so'zlar bor. O'tgan zamon sifatdoshi sifatga o'tgan taqdirda u zamon ma'nosini yo'qotadi va asliy sifat ma'nosini oladi<sup>41</sup>.

Sifat predmetlarning belgi-xususiyati (rangi, hajmi, shakli, mazasi, xarakteri, holati, vazni, hidi, o'rin yoki vaqtga munosabati) ni ifodalaydigan so'zlar turkumidir<sup>42</sup>.

Sifatlar predmet belgisini darajalab, ba'zan kuchaytirib yoki kamaytirib ko'rsatish kabi o'ziga xos morfologik xususiyatlarga ega<sup>43</sup>.

Asliy sifatlarning ko'pgina qismi nafaqat predmet belgisini bildiradi, balki harakat belgisini ham bildiradi. Ular aniqlovchi, kesimning ot qismi, ravish holi vazifalarida kelishlari mumkin ( تلفظ صحیح *talaffoz-e sahih* "to'g'ri talaffuz", تلفظ صحیح *u sahih* "uning talaffuzi to'g'ri", صحیح تلفظ می کند *talaffozas sahih ast* "u to'g'ri talaffuz qilayapti"). Aniqlovchi bo'lib kelganda, ular

<sup>41</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.137.

<sup>42</sup> Asqarova M., Yunusov R., Yo'ldoshev M., Muhamedova D. O'zbek tili praktikumi. – T.: Iqtisod-moliya. 2006. – B.131.

<sup>43</sup> Аскарлова М., Абдурахмонов Х. Ўзбек тили грамматикасининг практикуми. – Т.: Ўқитувчи, 1981. – Б.69,70.

aniqlanmishdan keyin keladi va *e* izofa belgisi orqali bog‘lanadi: مداد سرخ *medād-e sorx* “qizil qalam”<sup>44</sup>.

Sifatdosh predmetning belgisini bildiradigan fe‘l shakli hisoblanadi. Ular gapda, asosan, sifatlovchi aniqlovchi bo‘lib keladi, xuddi sifatlar kabi otga bog‘lanadi va uning belgisini aniqlab keladi<sup>45</sup>.

Sifatdosh fe‘lning sifatga yaqin, sifatga siljigan formasidir. Shuning uchun sifatdosh gapda ham sifat, ham fe‘l vazifalarida qo‘llana oladi<sup>46</sup>.

Fors tili sifatdoshlari fe‘lning turli xil grammatik shakllarini hosil qilishda va fors tili leksik tarkibi yangi so‘zlar bilan to‘ldirilishida ahamiyati ancha kattaligiga qaramay, ular hali ham fe‘llar bilan aloqadorligi (fe‘llik xususiyatlarining namoyon bo‘lishi, fe‘lning semantikasi) hamda funksional jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan til hodisasi bo‘lib qolmoqda. Fors tili so‘z yasalishi jarayonida sifatdoshlarning ishtiroki ham yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Fors tili sifatdoshlari tilning eng murakkab va ziddiyatli hodisalaridan biri bo‘lib, so‘zning grammatik xususiyatlari bo‘yicha turli xil kategoriyalarini qamrab oladi<sup>47</sup>.

Eronda chop etilgan grammatik asarlarda sifatdoshlar turli atamalar ostida nomlanadi. Ba‘zan sifatdoshlarning bir turi ikki-uch nom bilan yuritilishining ham guvohi bo‘lish mumkin.

Masalan: o‘tgan zamon sifatdoshlari – اسم مفعول , صفت مفعولى deb nomlansa, hozirgi zamon sifatdoshlari صفت مشبهه suffiksli sifatdoshlar , اسم فاعل , صفت فاعلى deb ham nomlanadi<sup>48</sup>. A.A.Vohidov – ān suffiksli hozirgi zamon sifatdoshlari حالیه

<sup>44</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк персидского языка. В кн.: Персидско – русский словарь, в 2-х томах. - М.: Русский язык, 1983. - С.818.

<sup>45</sup> Asqarova M., Yunusov R., Yo‘ldoshev M., Muhamedova D. O‘zbek tili praktikumi. – T.: Iqtisod-moliya. 2006. – B.173.

<sup>46</sup> Асқарова М., Абдурахмонов Х. Ўзбек тили грамматикасининг практикуми. – Т.: Ўқитувчи, 1981. – Б.96

<sup>47</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.269.

<sup>48</sup> دکتر حسن احمدی گیوی، دکتر حسن انوری. دستور زبان فرسی. ویرایش دوم. انتشارات فاطمه، سال 13/27/2005 ، 48 ، پنج استاد: ابد العظیم قریب، ملک الشعراى بهار، بدیع الزمان فروز انفر، جلال همایى، رشید یاسمى. دستور زبان فرسى. انتشارات دانشگاه تهران. تهران. 1992/1371.



iborat. Fe'l kabi, o'timli fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshlari majhul nisbatga ega bo'lishi mumkin: خوانده شده *xānde šode* "aytilgan", گفته شده *gofte šode* "o'qilgan". Ko'pchilik sifatdoshlar aniqlovchi vazifasida ishtirok etadi: برگهای افتاده *barghā-ye oftāde* "tushgan barglar", نامه فرستاده شده *nāme-ye ferestāde šode* "yuborilgan xat"<sup>55</sup>.

O'tgan zamon sifatdoshi aniqlovchilik vazifasida, qo'llanilishida nisbatan cheklangan, chunki bu vazifada hamma sifatdoshlar ham ishtirok eta olmaydi. Aniqlovchilik vazifasida sodda va murakkab fe'llarning sifatdoshlari ishtirok etadi: سال گذشته *sāl-e gozašte* "o'tgan yili" (گذشته *gozašte* – fe'l گذشتن *gozaštan* "o'tmoq"); نامه رسیده *nāme-ye raside* "yetib kelgan xat" (رسیده *raside* – fe'l رسیدن *rasidan* "yetib kelmoq"); رهبر آزموده *rahbar-e āzmude* "sinalgan rahbar" (آزموده *āzmude* – fe'l آزمودن *āzmudan* "sinamoq", "sinalmoq");

تمام نشده *dars-e tamām našode* "tugamagan dars" (تمام نشده *tamām našode* - tamām šodan "tugamoq" murakkab fe'lining inkor shakli);

پایمال شده *hoʻyū-ye pāymāl šode* "poymol qilingan huquq" (پایمال شده *pāymāl šode* – murakkab fe'l شدن پایمال شدن *pāymāl šodan* "poymol qilinmoq").

Murakkab fe'llardan hosil bo'lgan sifatdoshlarning xususiyati shundaki, ular aniqlovchi vazifasida, asosan sifatga aylanadi. Bu, har bir komponent o'zining mustaqil urg'usini yo'qotishida va murakkab so'zlar hosil bo'lishida aks etadi, holbuki analitik shakllarning murakkab fe'l ishtirokida shakllanishida, har bir komponent o'zining mustaqil urg'usini saqlab qoladi. Shu tariqa, haqiqiy o'tgan zamon sifatdoshi rolida ishtirok etayotgan, murakkab fe'ldan hosil bo'lgan shakllarni (yasamalarni murakkab fe'llardan farqlash kerak), sifat so'z turkumiga aylangan o'tgan zamon sifatdoshi sifatida kelayotgan shakllardan ajratish zarur<sup>56</sup>.

Ismiy so'z turkumlariga ko'chgan o'tgan zamon sifatdoshi ot va sifat so'z turkumlariga xos barcha grammatik vazifalarni bajaradi. Substantivlashganlari – kesim, to'ldiruvchi, tarkibli kesimning ot qismi vazifasini bajarishi, ko'plik ko'rsatkichlarini va aniqlik artiklini qa'bul qilishi mumkin; ad'ektivlashganlari –

<sup>55</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк персидского языка. В кн.: Персидско – русский словарь, в 2-х томах. - М.: Русский язык, 1983. - С.830.

<sup>56</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.462,463.

aniqlovchi sifatida ishtirok etishi va tarkibli kesimning ot qismi vazifasini bajarishi, daraja ko'rsatkichlarini qabul qilishi mumkin<sup>57</sup>.

Shu tariqa, so'z yasovchi transpozitsiya sababli o'tgan zamon sifatdoshi nafaqat yangi leksik ma'noni, balki yangi grammatik xususiyatlarni ham egallaydi. Eng turg'un transpozitlarga asl fe'l ma'nosini yo'qotgan so'zlarni kiritsak bo'ladi.

Ad'ektivatsiyaga uchragan sifatdoshlarning ko'p qismi, odatda birlamchi ma'nosini yo'qotib boshqa yangi ma'noni kasb etadi, masalan:

سيب پخته *poxte* (fe'l پختن *poxtan* "qaynatmoq", "pishirmoq") "yetilgan" (*sib-e poxte* "yetilgan olma"), "tajribali", "yetuk" (*آدمه پخته adam-e poxte* "tajribali odam"), "mukammal", "komil" (*زبان پخته zaban-e poxte* "mukammal, komil til", خط *xatt-e poxte* "mukammal, komil yozuv, xat") ma'nolarini oladi;

برجسته *barjaste* (fe'l برجستن *bar-jastan* "sakramoq", "sakrab chiqmoq") "chekaklangan", "bo'rtgan", "mashhur", "muhim", "mas'uliyatli" (*هنرپیشه برجسته honarpiše-ye barjaste* "mashhur san'atkor", مقام *mayām-e barjaste* "muhim maqom") ma'nolarini oldi;

گرفته *gerefte* (fe'l گرفتن *gereftan* "olmoq") bir nechta ma'nolarni kasb etadi: "xafa", "kayfiyati yo'q", "yopiq", "qayg'uli" (*قیافه گرفته qiyāfe-ye gerefte* "qayg'uli qiyofa"), "bo'g'ilgan", "xirillagan" (*صدای گرفته sedā-ye gerefte* "bo'g'ilgan ovoz"), "bulutli", "qovog'i soliq" (*آسمان گرفته āsmān-e gerefte* "bulutli osmon")<sup>58</sup> va hokazo.

Ko'p hollarda o'tgan zamon sifatdoshi bir vaqtning o'zida ham sifat ham ot ma'nosini ifodalaydi: برگزیده *bargozide* (fe'l برگزیدن *bargozidan* "tanlamoq") "tanlangan" va "tanlanma" ma'nolariga ega;

کوفته *kufte* (fe'l کوفتن *kuftan* "urmoq", "maydalamoq", "kukun shakliga keltirmoq", "yumshatmoq", "yanchmoq") – "holsizlangan", "qattiq charchagan", "sillasi qurigan" va کوفته *kufte* (qiyma) ma'nolarida qo'llaniladi;

<sup>57</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.275.

<sup>58</sup> O'sha kitob: - С.273.

گذشته *gozašte* (fe'1 گذشتن *gozaštan* “o'tmoq”, “oqib o'tmoq”) “o'tgan”, “o'tib ketgan” (سال گذشته *sal-e gozašte* “o'tgan yili”) va “o'tmish”, “o'tgan davr” (گذشته نزدیک در *dar gozašte-ye nazdik* “yaqin o'tmishda”) ma'nolariga ega.

Sifatga aylanayotgan o'tgan zamon sifatdoshlarining ma'nosida qayta ma'nolanish sodir bo'lishini quyidagi misollarda ham kuzatish mumkin:

آب نکشیده *ābnakašide* “qo'pol”, “haqoratli” (masalan, فحش آب نکشیده *fohš-e ābnakašide* “qo'pol, uyatli so'kish”, حرف های آب نکشیده *harfhā-ye ābnakašide* “so'kish so'zlari”) sifati, آب کشیدن *āb kašidan* “chaymoq”, “chayqamoq” murakkab fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi inkor shakli آب نکشیده *āb nakašide* dan hosil bo'lgan.

O'tgan zamon sifatdoshi sodda va prefiksli fe'llardan yasalganida ham sifatga o'tishi kuzatiladi. Bu o'tish, bu xildagi so'z nafaqat sifatning grammatik belgilarini qabul qiladi (masalan, qiyosiy va orttirma darajalari), balki ko'p hollarda sifatdoshning birlamchi ma'nosidan ancha uzoqlashgan ma'nolarga ega bo'ladi, masalan, o'tgan zamon sifatdoshi فهمیده *fahmide* (fe'1 فهمیدن *fahmidan* “tushunmoq”) “uquvli”, “idroikli” ma'nolarini olgan – مرد فهمیده *mard-e fahmide* “uquvli odam”; جوان فهمیده *javān-e fahmide* “uquvli bola”<sup>59</sup>. Ushbu misoldagi فهمیده *fahmide* sifatdoshi sifatga ko'chib, birlamchi ma'nodan uzoqlashgan ma'noni ifodalayapti, shu bilan birga o'tgan zamon ko'rsatkichini yo'qotib “tushungan” emas, balki “uquvli, idrokli” deb ma'nolanishi ham e'tiborga molik.

Bizning tadqiqot ishimiz mobaynida manbalarda uchragan quyidagi misollar bilan fikrimizga dalil keltiramiz, masalan:

داریوش پسری منتقی و در عین حال، یخته و هوشیار بود.

*Dāryuš pesari manteyi va, dar eyn-e hāl, poxte va hošyār bud.* (Bāγ-e māršāl, 125)

Doryush mantiqiy va shu bilan birga, tajribali va hushyor edi.

Ushbu jumladagi *poxte* o'tgan zamon sifatdoshi butunlay fe'1 anglatgan *poxtan* “pishirmoq” va uning sifatdoshi *poxte* “pishgan” ma'nosidan yiroqlashgan

<sup>59</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.462,463.

va qayta ma'nolanib "tajribali" ma'nosini kasb etgan va shu tariqa sifatlarga xos grammatik belgilarni o'zida jamlagan. Keyingi misollarda ham ushbu holatlar kuzatiladi:

با صدای بسیار گرفته که به سختی از حنجره اش بیرون می آمد، رفت.

*Bā sedā-ye besyār gerefte ke be saxti az hanjareaš birun miāmad, goft.*  
(Bāγ-e māršāl, 230)

Bo'g'zidan arang chiqayotgan juda bo'g'iq ovoz bilan, dedi.

مدتی به چهره تکیده و غمزده خسرو نگاه کردم.

*Moddati be čehre-ye takide va γamzade-ye Xosrou negāh kardam.* (Bāγ-e māršāl, 240)

Bir muddat Xusravning holsiz va g'amgin chehrasiga qarab turdim.

خسرو در حال و هوای دیگری بود و نگاه مات زده اش را از من برنمی داشت.

Xosrou dar hāl o havo-ye digari bud va negāh-e mātzadeaš rā az man bar nemidāšt. (Bāγ-e māršāl, 249)

Xusrav o'zgacha hol-u havoda edi va hayratli nigohini mendan uzmasdi.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turganidek, o'tgan zamon sifatdosh shakli ad'ektiv ma'nosini olganda, odatda fe'lning asosiy ma'nosidan ancha uzoqlashadi yoki umuman u bilan bog'liq bo'lmaydi. Masalan, o'tgan zamon sifatdoshi افتاده *oftāde* "yiqilgan" (fe'l افتادن *oftādan* "yiqilmoq") fe'lning ma'nosiga bevosita bog'liq bo'lmagan "yuvosh", "yumshoq", "kamtar", "odmi", "tinch" – آدم افتاده *ādam-e oftāde* "kamtar odam" ma'nolarini olgan:

مادر خسرو که پس از مرگ بهادرخان کمی افتاده شده بود، به من رو کرد و با صدای گرفته و

حالتی شرمنده گفت.

*Mādar-e Xosrou ke pas az marg-e Bahādorxān kami oftāde šode bud, be man ru kard va bā sedā-ye gerefte va hālāti šarmande goft.* (Bāγ-e māršāl, 135)

Bahodirxonning o'limidan so'ng bir oz yuvosh bo'lib qolgan Xusravning onasi, menga qaradi va bo'g'iq ovoz va xijolat bo'lib dedi.

Murakkab va prefiksli fe'llar asosida yasalgan so'zlar (o'tgan zamon sifatdoshi) sifatga o'tishning yorqin namunasi bo'la oladi:

دریوش جوانی بیست و هفت، هشت ساله، تحصیل کرده و، در عین حال، خوش سیما و خوش  
برخورد بود.

*Dāryuš javāni bist o haft, hašt sāle, tahsilkarde va , dar eyn-e hāl, xoš simā  
va xošbarxord bud.* (Bāy-e māršāl, 143)

Doryush yigirma yetti, sakkiz yashar, o'qimishli va shu bilan birga xushchehra va muloyim yigit edi.

... در مقابل حالت برافروخته و خشمگین مادرم دم فرو بست و گفته های او را تأیید کرد.

*...dar moyābel-e hālate-e barafruخته va xašmgin-e mādam dam foru-bast  
va goftehā-ye u rā ta'iid kard.* (Bāy-e māršāl, 93)

... onamning jaxldor va darg'azab holati oldida dami ichiga tushib ketdi va uning so'zlarini tasdiqladi.

در نظر مادرم، او زنی بود دلشکسته و نا امید.

*Dar nazar-e mādam, u zani bud delšekaste va nāomid.* (Bāy-e māršāl, 156)

Onam nazarida u, ko'ngli siniq va umidsiz bir ayol edi.

Murakkab fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshlaridan yasalgan sifatlarni, sodda fe'llarning sifatdosh shakli va ot so'z turkumidan tashkil topgan shakllardan farqlash kerak:

“zilziladan aziyat chekkan mintaqalar” *manātey-e zelzelezade* زلزله زده  
*zelzelezade* “zilziladan aziyat chekkan” = زلزله *zelzele* “zilzila” + o'tgan zamon sifatdoshi زده *zade*, زدن *zadan* “urmoq” fe'lidan);

وحشت زده ( “dahshatga tushgan ayollar” *zanhā-ye vahšatzade* وحشت زده  
*vahšatzade* “dahshatga tushgan” = وحشت *vahšat* “dahshat” + o'tgan zamon sifatdoshi زده *zade*, زدن *zadan* fe'lidan);

مادرمرده ( مادرمرده *pesar-e mādarmorde* “onasini yo‘qotgan bola”) = مادر *mādar* “ona” + o‘tgan zamon sifatdoshi *mādarmorde* “onasini yo‘qotgan” = مردن *mordan* “o‘lmoq” fe‘lidan).

Bu xildagi murakkab so‘zlar – sifatlar, zohiran murakkab fe‘llarning sifatdoshlariga o‘xshasada, shunga qaramay, yuqorida ko‘rsatilganidek, bunday emas<sup>60</sup>. Quyidagi misollarni kuzata turib, biz ham Yu.A.Rubinchik bildirgan ushbu fikrlarga qo‘shildik. Masalan:

باید صبر کنیم تا مردی زن مرده و یا سن و سال دار از ما خواستگاری کند.

*Bāyad sabr konim tā mardī zanmorde va yā sennosāldār az mā xāstgāri konad.* (Bāy-e māršāl, 215)

To xotini o‘lgan yoki qari bir erkak bizga sovchi qo‘ymagunicha sabr qilishimiz kerak.

قابله که زنی کارکشته و میان سال بود همه را دعوت بر سکوت کرد.

*γobele ke zani kārkošte va miyānsāl bud, hame rā da‘vat bar sokut kard.* (Bāy-e māršāl, 163)

Tajribali va o‘rta yoshli doya ayol, hammani tinchlikka chaqirdi.

Yuqorida keltirilgan misollardagi *mardī zanmorde* va زنی *zani kārkošte* birikmalaridagi *zanmorde* va *kārkošte* sifatleri zohiran murakkab fe‘llarning sifatdoshlariga o‘xshasada, aslida murakkab fe‘llarning o‘tgan zamon sifatdoshlaridan yasalgan sifatlardir.

Yu.A.Rubinchik ushbu shakllar urg‘ularidagi farqlar tufayli turli grammatik va leksik-frazeologik birikmalarining mavjudligini aniq kuzatish mumkinligini va bu shakllar haqiqatan ham sifatdosh bo‘lgan hollarda, asosiy urg‘u prefiks va ismiy qismga tushishini ko‘rsatib o‘tadi:

*r-āmade-ast*□*ba* - “u ko‘tarildi, chiqdi”, “u paydo bo‘ldi, ko‘rindi”;

*-zadeim*□*vā* - “biz yaroqsiz deb topdik”;

<sup>60</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.462,463.

*m šode-ast* - □ *taydi* “taqdim etilgan”;

Bu shakllar atributiv yoki substantiv vazifada qo‘llanilgan taqdirda, urg‘u, hosil bo‘lgan so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga ko‘chadi:

برآمده □ *barāmade* “ko‘tarilgan”, “chiqqan”, “paydo bo‘lgan”, “ko‘ringan”,

وازده □ *vāzade* “yaroqsiz topilgan”, “yaroqsizlantirilgan”,

تقديم شده □ *taydīmšode* “taqdim etilgan”<sup>61</sup>.

Yuqoridagi misollarni keltirib Yu.A.Rubinchik “urg‘uning sifatdosh shakllarining oxirgi bo‘g‘iniga ko‘chishi, murakkab va prefiksli fe‘llarning o‘tgan zamon sifatdoshi asosida yangi murakkab va yasama so‘zlarning hosil bo‘lishi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi” degan xulosaga keladi. Urg‘uning sifatdosh shakllarining oxirgi bo‘g‘iniga ko‘chishi orqali yangi so‘zlarning hosil bo‘lishi dalilini morfonologiyaning hodisalaridan biri sifatida qarash kerakligini va bu turdagi shakllanish tez-tez yangi leksik ma‘nolarni qabul qilishini va yuqorida ko‘rib chiqilgan, bir vaqtning o‘zida ham substantiv, ham ad‘ektiv, hamda adverbial ma‘nolarni kasb etuvchi ko‘p ma‘noli va polifunksional (ko‘p vazifali) leksemalar bilan qiyoslanganda, o‘zining leksik-grammatik aniqligi bilan farqlanishini takidlaydi<sup>62</sup>.

Tadqiqot davomida to‘plangan misollar sifat-o‘tgan zamon sifatdoshi, boshqa asliy sifatlar kabi qiyosiy va orttirma darajalari shakllarini hosil qilish imkoniga egaligini ko‘rsatdi:

دلم می خواست به سرنوشت "اسکارلت" قهرمان داستان، که دختری بخت برگشته تر از من،

پی بیرم.

*delam mixāst be sarnavešt-e “Eskārlet” qahramāne dāstān, ke doxtari baxtbargaštetar az man, pey bebaram.* (Bāy-e māršāl, 124)

...mendan ham baxtsizroq qiz bo‘lgan, hikoya qahramoni “Skarlet” taqdirini bilib olishni xohlardim.

از جمله آنان مادر خسرو بود که رفته رفته شکسته تر می شد.

<sup>61</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.137.

<sup>62</sup> O‘sha kitob: - С.137,138.

*az jomle-ye ānān mādar-e Xosrou bud ke rafte rafte šekastetar mišod...* (Bāy-e māršāl, 223)

Ular qatorida bora bora kuch quvvatdan qolayotgan (qartayibroq borayotgan) Xusravning onasi ham bor edi.

Bu borada Yu.A.Rubinichik quyidagi misollarni keltirib o‘tadi:

*برجسته ترین دانشمندان جزو این سازمان بین المللی شدند.*  
*jozv-e in sāzemān-e beynolmelali šodand.* – “Bu xalqaro tashkilotga eng mashhur olimlar a‘zo bo‘ldilar”;

*سه روز دیگر اوضاع آسوده تر شد.*  
*se ruz-e digar owzā’ āsudetar šod.* - “Uch kundan so‘ng vaziyat osuda holga keldi”<sup>63</sup> (aynan: tinchroq bo‘ldi).

L.S.Peysikov o‘zining sintaksisga bag‘ishlangan kitobida o‘tgan zamon sifatdoshi o‘zining ma’no va vazifasi bo‘yicha ancha murakkabroqligini va bu sifatdoshlar bilan bog‘liq muammolar ko‘pligini ta’kidlaydi, lekin ushbu muammolarni chetlab o‘tib o‘tgan zamon sifatdoshini qanday qilib izofiy so‘z birikmasining bosh qismini aniqlay olishini ko‘rsatadi. Hamda avval *o*-e shaklli sifatdoshlarni ikkinchi qism vazifasida mustaqil ishlatilinishini, bundan so‘ng, uni izohlovchi so‘zlar bilan qo‘llanilishini ko‘rib chiqadi:

*انگشت های کشیده داشت.*  
*angošthā-ye kašide dāšt* - “uning uzun barmoqlari bor edi”;

*زن درمانده دهاتی نمی دانست سرطان چیست.*  
*zan-e darmānde-ye dehāti nemidānest saratān čist* - “ojiza qishloq ayoli saraton nima ekanligini bilmas edi”;

*آثار زیبایی در دست های پیر و چروکیده اش پیدا بود.*  
*āsār-e zibāi dar dasthā-ye pir o čorukideāš peydā bud* - “uning qarigan va ajin bosgan qo‘llarida go‘zallik belgilari ko‘rinardi”.

Bu gaplarda *kašide* “uzun”, “cho‘zilgan”, *darmānde* “ojiz”, “chorasiz vaziyatda qolgan”, *čorukide* “ajin bosgan” sifatdoshlari atributiv so‘z birikmalarini hosil qilgan bo‘lib, unda ikkinchi qismi sifat kabi harakat tushunchasi bilan semantik bog‘langan, yoki harakat ta’sirida vujudga kelgan

---

<sup>63</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.137,138.

predmetning doimiy xususiyatini bildiradi. Lekin belgi munosabati va unga xos boʻlgan boshqa munosabat bu soʻz birikmalarida topilmaydi. Bu gaplardagi sifatdoshlarning feʼllik xususiyatlari yoʻqolib ketgan va oʻz oʻrnini atributivlikka boʻshatib bergan. Aniqlovchilik vazifasidagi sifatdoshlarga xos boʻlgan vaqtinchalik belgi bu yerda sifatlarga xos boʻlgan doimiy va sobit belgi bilan almashgan. Shu yoʻl bilan barcha eroniy tillarda keng tarqalgan sifatdoshlarning adʼektivatsiyasi roʻy bergan<sup>64</sup>.

Tadqiqot davomida manbalar asosida toʻplangan misollar orqali ham, ushbu fikrlar oʻz isbotini topadi. Masalan:

سپس همسرش با روی گشاده به استقبال ما آمد، و با ناهید روبوسی کرد.

*sepas hamsaraš bā ru-ye gošāde be esteybāl-e mā āmad, va bā Nāhid rubusi kard.* (Bāy-e māršāl, 351)

...soʻngra turmush oʻrtogʻi ochiq yuz bilan bizni kutib olishga chiqdi va Nohid bilan yuz oʻpishib koʻrishdi.

چشمان زیبا، مژه های بلند، ابروان باریک و کشیده، قد بلند سیما دیگر بار در نظرم مجسم شد.

*čašmān-e zibā, možehā-ye boland, abrovān-e bārik va kašide, γadd-e boland-e Simā digar bār dar nazaram mojassam šod.* (Bāy-e māršāl, 496)

Simoning chiroyli koʻzlari, uzun kipriklari, ingichka va uzun (tortilgan) qoshlari, baland boʻyi yana koʻz oldimda mujassamlandi.

Ushbu jummalardagi *ru-ye gošāde* va *abrovān-e kašide* izofiy birikmalardagi ikkinchi qism vazifasida kelayotgan *gošāde* va *kašide* sifatdoshlari harakat taʼsirida vujudga kelgan predmetning doimiy xususiyatini bildirib kelmoqda, feʼllik xususiyatlari yoʻqolib ketgan, sifatdoshlarga xos vaqtinchalik belgi asliy sifatlarga xos boʻlgan doimiy belgiga almashgan.

Harakatni ifodalovchi majhul feʼllardan yasalgan sifatdosh shakllar doimiy va sobit asliy sifat belgilarini namoyon eta oladi, masalan:

ماهی پوسیده *māhi-ye puside* “soʻligan barglar”, *barghā-ye pālāsīde* “soʻligan barglar”;

*puside* “aynigan baliq(chirigan)”;

<sup>64</sup> Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. – М.: Издательство института международных отношений, 1959. - С.79,80.

صورت چروکیده *surat-e čorukide* “ajin bosgan yuz”;  
درخت خشکیده *deraxt-e xoškide* “qurigan daraxt”;

دست های آماسیده *dasthā-ye āmāsīde* “shishib ketgan qo‘llar” va hokazo<sup>65</sup>.

Ushbu barcha sifatdoshlarni sifatlardan ajratish qiyin, chunki ular sifatlar bilan semantik o‘xshashligidan tashqari, yuqorida takidlanganidek, grammatik munosabatlarda ham mos keladi va xuddi asliy sifatlar kabi daraja ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi.

L.S.Peysikov ko‘pgina faol o‘timli fe’llardan yasalgan o‘tgan zamon sifatdoshlari izofiy so‘z birikmalarining ikkinchi qismi vazifasida kelgani kuzatilmasligini aytadi va misol tariqasida quyidagi o‘timli fe’llarni keltiradi: نامیدن *nāmīdan* “nomlamoq”, فهمیدن *fahmīdan* “tushunmoq”, دزدیدن *dozdidan* “o‘g‘irlamoq”, خواندن *xāndan* “o‘qimoq”, خریدن *xarīdan* “sotib olmoq”, ساختن *sāxtan* “qurmoq”, زایدن *zāīdan* “tug‘moq”, کندن *kandan* “yulmoq” va shunga o‘xshash fe’llarning sifatdosh shakli faqatgina analitik fe’l zamonlari tarkibiga kirishini ta’kidlaydi. Lekin bulardan ba’zilari o‘zi yasalgan fe’l ma’nosidan boshqa ma’noni bildirgan paytda ular mustaqil ravishda ikkinchi qism sifatida ishtirok etishlari mumkinligini aytadi. Qiyoslang, masalan, کارگر فهمیده *kārgar-e fahmīde* “aqlli ishchi” so‘z birikmasi semantik jihatdan فهمیدن *fahmīdan* “tushunmoq” fe’lidan ajraladi, semantik siljishning yo‘qligida فهمیده *fahmīde* “tushungan” yoki “tushunarli” ma’nolarini ifoda etishi kerak edi, bu esa harakat natijasida vujudga kelgan xususiyat hisoblanadi. Shuningdek keyingi gapdagi دزدیدن *dozdidan* “o‘g‘irlamoq” fe’lidan yasalgan دزدیده *dozdīde* shaklini ham qiyoslang:

پیشخدمت نگاه دزدیده ای به او کرد *pišxedmat negāh-e dozdīdei be u kard* -  
“ofitsiant unga yashirincha qaradi”.

صدای گرفته *gerefte* (خاطه پخته *xatt-e poxte* “chiroyli pishiq yozuv”), پخته *poxte*  
sedā-ye gerefte “bo‘g‘ilgan ovoz”) va shunga o‘xshash har xil bosqichda fe’l bilan aloqasini uzayotgan shakllar ham ad’ektiv yoki substantiv ma’nolarida mustaqil ravishda qo‘llanila oladi. Shu yo‘l orqali omonim shakllar hosil bo‘ladi:

<sup>65</sup> Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. – М.: Издательство института международных отношений, 1959. - С.80,81.

sifatlashgan sifatdosh tobora fe'l ma'nosidan uzoqlasha boradi, semantik rivojlanadi va boshqa so'z turkumiga o'tadi – sifat va ot so'z turkumlariga<sup>66</sup>.

L.S.Peysikov majhul nisbatning analitik shaklidan yasalgan murakkab sifatdoshlar, izofiy birikmaning ikkinchi qismi vazifasida tez-tez uchrashini va harakat ta'sirida vujudga kelgan nisbiy belgini ifodalashini ko'rsatib o'tadi:

سخنان گفته شده *soxanān-e gofte šode* - “aytilgan so'zlar”;

اسرای دزدیده شده *osarā-ye dozdide šode* - “o'g'irlangan asirlar”;

چاه کنده شده *čāh-e kande šode* “qazilgan o'ra”;

میوه های برچیده شده *mivehā-ye barčide šode* - “saralangan mevalar” va boshqalar<sup>67</sup>.

Ko'pgina frazeologik fe'llarning sifatdosh shakllari, ikkinchi qism vazifasida kelganda, harakat ta'sirida vujudga kelgan doimiy asliy sifat belgilarini ifodalaydi. Bu hollarda ularni sifatlardan ajratish mushkul bo'ladi. Masalan *gorosnegikešide* “och” (*gorosnegi kešidan* “ochiqmoq” fe'lidan), *ābruboxte* “insofsiz” (*ābru bāxtan* “obru yo'qotmoq” fe'lidan) va *varamkarde* “shishgan” (*varam kardan* “shishmoq” fe'lidan) sifatdosh shakllarni keyingi jummalarda qiyoslang:

در قیافه های گرسنگی کشیده آیات یأس خوانده می شد. *dar yiyāfehā-ye gorosnegikešide āyāt-e yā's xānde mišod* – “ochiqqan yuzlarda tushkunlik sezilardi”;

توطئه های خائنه آنها و سایر مزدوران آبروباخته استعمار. *touteehā-ye xāenāne-ye ānhā va sāyer-e mozdurān-e ābrubāxte-ye este'mār* – “ularning xoinona ishlari va imperializmning boshqa insofsiz yollanmalari”;

همه مردم با قیافه های اخم الود و لباسهای کثیف و چشم های ورم کرده مثل کرم درهم می لولیدند. *hame-ye mardom bā yiyāfehā-ye axmālud va lebāshā-ye kasif va čēšmhā-ye varamkarde mesl-e kerm darham milulidand* – “qovog'i solig' yuzli, shishib ketgan ko'zli, kir kiyimli barcha odamlar xuddi qurtday g'imirlashardi”<sup>68</sup>.

<sup>66</sup> Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. – М.: Издательство института международных отношений, 1959. - С.81.

<sup>67</sup> O'sha kitob: - С.81,82.

<sup>68</sup> O'sha kitob: - С.82,83.

Yu. A. Rubinchik zamonaviy tilda o'tgan zamon sifatdoshlarini ismiy so'z turkumlariga o'tish jarayoni faol davom etayotganini hisobga olsak, bunda ushbu sifatdoshlarning ad'ektivatsiya hamda substantivatsiyaga uchrash darajalari turlicha ekanini aytish lozim deb aytadi va turli xil fors tili sifatdoshlari orasida o'tgan zamon sifatdoshi eng ko'p okkazonal transpozit xususiyatlariga egaligini, ularning boshqa so'z turkumlari o'rnida qo'llanilishi haqida faqatgina ma'lum bir tekst ustida (misolida) aytish mumkinligini, tekstdan tashqari hollarda ularni o'tgan zamon sifatdoshi sifatida qarash maqsadga muvofiq bo'lishini aytadi<sup>69</sup>. L.S. Peysikovning fikricha esa o'tgan zamon sifatdoshi ad'ektiv yoki substantiv ma'nolarida mustaqil ravishda qo'llanila oladi va shunga oid bir qancha misollar keltiradi<sup>70</sup>.

Bizningcha esa o'tgan zamon sifatdoshi ad'ektiv yoki substantiv ma'nolarida mustaqil ravishda qo'llanilishi nazarda tutilayotganda, albatta uning fe'l bilan qay darajada ma'nosi uzilishiga ahamiyat berish lozim bo'ladi. Tadqiqot ishimiz davomida Yu.A. Rubinchik va L.S. Peysikovlarning fikrlariga tayangan holda shu fikrga kelindiki, sifatdosh-sifat fe'l yoki o'tgan zamon sifatdoshi anglatgan birlamchi ma'nodan qanchalik uzoqlashsa yoki qayta ma'nolansa, bu holda o'tgan zamon sifatdoshi asliy sifatlar kabi mustaqil ravishda qo'llanila olishi haqida xulosa chiqarsa bo'ladi. Tadqiqot ishi davomida, bir qancha, har xil bosqichda fe'l bilan aloqasini uzayotgan shakllar keltirilib o'tildi. Masalan *خستن* *xastan* (1) yarador qilmoq, jarohatlamoq; 2) sanchmoq, suqmoq, qadamoq; 3) chaqmoq, nish urmoq; 4) tirnamoq, timdalamoq; 5) azob bermoq, qiynamoq) fe'lining tilda juda keng qo'llaniladigan *خسته* *xaste* (1) charchagan, toliqqan, qiynalgan, azoblangan; 2) g'amgin, qayg'uli, xafa va hokazo) o'tgan zamon sifatdoshi ham mustaqil ravishda qo'llaniladi. Bulardan tashqari manbalarda uchratilgan *پژمورده* *pazmorde* 'ma'yus', 'kayfiyatsiz', 'rangpar' (so'ligan); *پراکنده* *parakande* 'tarqoq', 'parokanda' (sochilgan, tarqalgan); *پیوسته* *peywaste* 'doimiy'

<sup>69</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.274.

<sup>70</sup> Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. – М.: Издательство института международных отношений, 1959. - С.81.

(bog‘langan); پیشرفته *pišrafte* ‘ilg‘or’ (rivojlangan) va shunga o‘xshash ko‘plab misollarni keltirish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi davomida biz mutolaa qilgan fors tilidagi grammatikaga oid kitoblarda sifatdoshlar sifatlar qatorida ko‘rib chiqilgan va ularning ad‘ektivatsiyasi haqida hech qanday ma‘lumot berilmaydi. Masalan Parviz Notel Xonlariy o‘zining “*dastur-e zabān-e fārsi*” kitobida sifatlarning ma‘no jihatidan turlarini keltirib o‘tadi va quyidagi misolni keltiradi:

گنبدیه را دور بینداز *sib-e gandise ra dur beyandāz* – “chirigan olmani chetga tashla”.

Shu bilan birga so‘zining davomida *gandise* sifatdoshini tahlil qilarkan shunday deydi: “Bu yerdagi *gandise* sifati holatni bildirayapti va shu kabi otning holati va qanaqaligini bildiruvchi sifatlar asliy sifatlar deb ataladi”<sup>71</sup>.

Bundan tashqari asliy sifatlarga berilgan ta‘rifdan so‘ng شاخه شکسته *šaxe-ye šekaste* izofiy birikmasidagi *šekaste* sifatdoshini ham asliy sifatlarga misol tariqasida keltiradi<sup>72</sup>.

Boshqa yana bir kitobda esa sifatlarning qiyosiy darajalari haqida gap ketganda, ularga misol tariqasida keltirilgan jumlar tarkibida qiyosiy darajadagi sifat rolida o‘tgan zamon sifatdoshi ishtirok etadi<sup>73</sup>. Masalan:

سیرت پسندیده تر که صورت.

Demak, biz o‘rgangan manbalarga tayangan holda, eronlik olimlarning sifatdosh (o‘tgan zamon sifatdoshi) mavzusiga yondoshuvlari rus va o‘zbek olimlarining yondoshuvlariga nisbatan torroq ekanligi haqida xulosa chiqarsa bo‘ladi.

## 2.2. Hozirgi zamon sifatdoshlarining sifatga aylanishi

<sup>71</sup> پرویز ناتل خانلری. دستور زبان فرسی. انتشارات طوس. تهران. 1992/1370. ص. 180.

<sup>72</sup> O‘sha kitob: 187. ص.

<sup>73</sup> پنج استاد: ابد العظیم قریب، ملک الشعراى بهار، بدیع الزمان فروز انفر، جلال همایی، رشید یاسمی. دستور زبان فرسی. انتشارات دانشگاه تهران. تهران. 1992/1371. ص. 55.

Hozirgi zamon sifatdoshlari *-ande*, *-ān*, va *-ā* suffikslari bilan yasalgan fe'liy shakllardir.

Hozirgi zamon fors tilisida deyarli barcha hozirgi zamon sifatdoshlari ot va sifat soʻz turkumlariga oʻtgan hisoblanadi<sup>74</sup>.

Fe'l bilan boʻgʻliqlik darajasiga koʻra ular oʻtgan zamon sifatdoshlaridan ancha ortda qoladi, shuning uchun koʻpgina grammatika va fors tili darsliklarida bu fe'liy yasamalarni shartli ravishda sifatdoshlar qatoriga kirgiziladi.

Bir qancha grammatistlar hozirgi zamon sifatdoshlarini umuman sifatdosh shakllari tarkibidan chiqarib tashlashadi va ularni گر *gar*, گار *gār* va shunga oʻxshash suffikslar orqali yasaladigan ot hamda sifatlar qatorida, shuningdek fe'liy yarim affikslar sifatida koʻrib chiqishadi. Bunday qarashlar koʻpchilik eron mualliflariga xosdir<sup>75</sup>. Masalan besh dasturnavis olim muallifligida nashr etilgan grammatikaga oid kitobda hozirgi zamon sifatdoshini yasalishi jihatidan yetti turga boʻlingan, bular: *-ande*, *-ān*, *-ā*, *-ār*, *-gār*, *-gar*, *-kār* suffikslari orqali yasalgan hozirgi zamon sifatdoshlaridir<sup>76</sup>.

Bundan avvalgi bandda ham eronlik dasturnavis olimlarning sifatdoshlarga boʻlgan qarashlari haqida soʻz yuritgan edik. “Dastur-e zabān-e fārsi”<sup>77</sup> kitobida, sifatning qiyosiy darajasi yoritilgan mavzuda, misol tariqasida asliy sifatning qiyosiy darajasiga berilgan soʻzlarning beshtasidan uchtasi *-ande* suffiksi orqali yasalgan sifatdosh ekanligi ham bizningcha yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

### 2.2.1. *-ande* suffiksi orqali yasalgan sifatdoshlar ad'ektivatsiyasi

<sup>74</sup> Содиқова Т.Қ. Форс тилида транспозиция усули орқали от ясаши: Магистрлик диссертацияси. – Т. 2007. – Б.68.

<sup>75</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.276.

<sup>76</sup> پنج استاد: ابد العظيم قریب، ملک الشعراء بهار، بدیع الزمان فروز انفر، جلال همایی، رشید یاسمی. دستور زبان فرسی. انتشارات دانشگاه تهران. تهران. 1992/1371. ص. 111.

<sup>77</sup> O'sha kitob: 54. ص.

Eng ko‘p *-ande* suffiksi orqali yasalgan sifatdoshlar ot va sifat vazifasida keladi va barcha shu so‘z turkumlariga xos bo‘lgan grammatik ko‘rsatkichlarni qabul qiladi va bu kabi sifatdosh shakllariga gap tarkibida butun ismiy bo‘laklarning vazifasini bajarish imkonini beradi<sup>78</sup>:

لحظه ودا برای نصیرالدین سخت تلخ و گزنده بود.

*Lahze-ye vedā barāye Nasireddin saxt talx va gazande bud* (Setāre-ye tus, 84)

Nasiriddin uchun vidolashish lahzalari juda qayg‘uli va achchiq edi.

*-ande* suffiksi orqali yasalgan sifatdosh shakllari ham izofiy birikmaning ikkinchi bo‘lagi vazifasida kelganda ular sifat yoki ot so‘z turkumlaridan hech ham farq qilmaydi, masalan *heyvānāt-e darande* “yirtqich hayvonlar” va *āvāz-e xānande* “xonandaning ovozi”. Bu misollarda ikkinchi bo‘lakning semantikasi harakat ma‘nosi bilan bog‘liqdir<sup>79</sup>. Manbalarda uchragan jummalarni tahlil qiladigan bo‘lsak yuqoridagi fikrlar qanchalik o‘rinli ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Masalan :

با دیدن نگاه فریبنده دختری از دیار دیگر، به او پشت کردم.

*Bā didan-e negāh-e faribande-ye doxtari az diyār-e digar, be u pošt kardam.* (Bāγ-e māršāl, 263)

O‘zga yurtlik bir qizning aldamchi nigohini ko‘rishim bilan, unga teskari o‘girildim.

چه شبها بود که توی بیابون ها از ترس جونواری درنده تا صبح نمی خوابیدیم.

*če šabhā bud ke tu-ye biyābunhā az tars-e junvāri darande tā sobh namixābidim...* (Bāγ-e māršāl, 159)

Qanday kechalar edi, biyobonlarda yirtqich hayvondan qo‘rqib tonggacha uxlamasdik...

<sup>78</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.276.

<sup>79</sup> Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. – М.: Издательство института международных отношений, 1959. - С.77.

Keltirilgan ushbu va manbalarda uchratilgan yana boshqa misollarni tahlil qilish jarayonida *-ande* suffiksi orqali yasalgan hozirgi zamon sifatdoshi ham izofiy birikmaning ikkinchi qismi vazifasida aniqlovchi bo‘lib sifatlarga xos morfologik belgilarni qabul qilishiga va shu tariqa sifatga aylanishiga guvoh bo‘ldik. Yuqorida keltirilgan *negāh-e faribande* va *junvāri darande* izofiy birikmasidagi *faribande* va *darande* sifatdoshlari gap tarkibida sifatning vazifasini bajarib kelgan.

Bitiruv malakaviy ishi davomida olib borilgan tadqiqot natijasi murakkab fe’llarning hozirgi zamon sifatdoshlari ham izofiy birikmaning ikkinchi qismi vazifasida keng qo‘llanilishini ko‘rsatdi:

وجود سیما و رفتار و خالتی که داشت، برایم نگران کننده و شک برانگیز بود.

*Vojud-e Simā va raftār va hālāti ke dāšt, barāyam negarānkonande va šak barangiz bud.* (Bāγ-e māršāl, 78)

Simoning borligi, o‘zini tutishi va holati, men uchun xavotirli va shubhali edi.

وقتی ببینه سیما بی بند و باره و تنها اون نیست که اسیر زیبایی گول زننده دخترک شده ،  
لحظه ای توی تهرون بند نمیشه.

*Vayti bebine Simā bibandobāre va tanhā un nist ke asir-e zibāi-ye gulzanande-ye doxtarak šode, lahzei tuye Tehrun band nemiše* (Bāγ-e māršāl, 91)

Simo yengiltakligini va qizaloqning aldamchi go‘zalligining asiri faqat u bo‘lmaganligini bilgan vaqtda, bir lahza ham Tehronda ushlanib qolmaydi.

### 2.2.2. ۱ -ā suffiksi orqali yasalgan sifatdoshlar ad’ektivatsiyasi

Bu sifatdosh shaklini o‘rganish davomida, to‘plangan misollar ushbu sifatdosh shakl *-ande* va *-ān* suffiksli hozirgi zamon sifatdoshlaridan farqli o‘laroq, fe’llik ma’nosidan ancha yiroq, deyarli o‘zida fe’liy munosabat belgilarini namoyon etmasligini ko‘rsatdi.

Eronlik olimlar ᵅ -ā suffiksli hozirgi zamon sifatdoshi (صفت مشبیه) doimiy va sobit sifatni ifodalashini takidlab, yuqorida keltirilgan fikrimizni tasdiqlaydilar<sup>80</sup>.

Yu.A.Rubinchiq ushbu xildagi sifatdoshli yasamalarning to‘liq transpozitsiyasining ko‘rsatkichlaridan biri bu ularning fe‘l bilan semantik munosabatlarini yo‘qotishidir deydi<sup>81</sup>. Masalan: روا *ravā* “ruhsat berilgan”, “maqbul” (fe‘l رفتن *raftan* 1) “yurmoq”, “bormoq”, “ketmoq”; 2) “yaqinlashmoq”; 3) “oqmoq”, “oqib chiqmoq”; 4) “kirmoq”, “botmoq”(quyosh haqida); 5) “o‘xshamoq”, “o‘xshash bo‘lmoq”; 6) “o‘chmoq”; 7) “niyat qilmoq”, “ahd qilmoq”). Ko‘rib turganimizdek, ᵅ -ā suffiksi orqali yasalgan sifatdosh, ad’ektiv ma’noni kasb etgan bir paytda, fe‘l bilan ma’no bog‘liqligini butunlay yo‘qotgan. Manbalarda uchratilgan quyidagi jumlar bilan fikrimizga dalil keltiramiz:

از بسیاری از کارهای ناروای مأموران شاه و خلیفه جلوگیری می کنم.

*Az besyāri az karhā-ye nāravā-ye ma‘murān-e šāh va xalife jelougiri mikonam.* (Setāre-ye tus,19)

Shoh va xalifa xizmatchilarining ko‘pgina nojo‘ya ishlariga to‘sqinlik qilaman.

صدای گرم و گிரای معین الدین به نوجوان آرامش داد.

*Sedā-ye garm o girā-ye Moineddin be noujavān ārāmeš dād.*(Setāre-ye tus, 42)

Mo‘iniddinnig iliq va maftunkor ovozi o‘smirni tinchlantirdi.

Ushbu jumalardagi *nāravā* va *girā* hozirgi zamon sifatdoshlari *raftan* va *gereftan* fe‘llari anglatgan birlamchi ma’nolardan butunlay uzoqlashgan, qayta ma’nolangan va to‘liq sifatlariga transpozitsiya bo‘lgan.

Yu.A.Rubinchiq ᵅ -ā suffiksi orqali yasalgan sifatdoshlarga asosan ad’ektivlik ma’nosi xarakterliligini, lekin ba’zida bir vaqtning o‘zida ham ad’ektiv ham adverbial ma’nolariga ega bo‘lishini ta’kidlaydi:

خوانا *xānā* “aniq”, “o‘ qilishi oson” va “tushunarli”, “aniq (yozish)”;

<sup>80</sup> پنج استاد: ابد العظیم قریب، ملک الشعراء بهار، بدیع الزمان فروز انفر، جلال همایی، رشید یاسمی. دستور زبان فرسی. انتشارات دانشگاه تهران. تهران. 1992/1371. ص. 120.

<sup>81</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.284.

گوزرا *gozarā* “ko‘chuvchi”, “o‘tkinchi” va “birrov”, “birvarakay”;

پرسا *porsā* “so‘ruvchi”, “qiziquchan” va “so‘rab” va hokazolarni misol tariqasida keltiradi. Shu o‘rinda ad’ektiv ma’no ko‘pincha substantiv ma’no bilan o‘xshash bo‘lishini ham ta’kidlab o‘tadi:

دانا *dānā* “dono” va “dono(odam)”;

سوزا *suzā* “yonilg‘i”, “yoqilg‘i” va “yonadigan”, “yonuvchi”<sup>82</sup>.

Ushbu keltirilgan misollar ad’ektivlik ma’nosini kasb etayotganda, ushbu *ā* suffiksli so‘zlar shaxs yoki predmetning doimiy sifatlarini bildiradi va kerakli sifat daraja ko‘rsatkichlarini qabul qilib darajalana oladi:

رسا *rasā* “tushunarli”, “baland (ovoz haqida)” - رساتر *rasātar* “tushunarliroq, “balandroq (ovoz haqida)” - رساترين *rasātarin* “juda tushunarli”, “eng baland (ovoz haqida)”;

دانا *dānā* “dono” - داناتر *dānātar* “donoroq” - داناترين *dānātarin* “eng dono” va hokazo.

*ā* suffiksli so‘zlar shaxs yoki predmetning doimiy sifatlarini bildirgan holatiga manbalarda uchratilgan jummalarni misol tariqasida keltiramiz:

او از شاگردان بسيار کوشا و پرهيزکار محضر من است.

*U az šāgerdān-e besyār kušā va parhizkār-e mahzar-e man ast.*(Setāre-ye tus, 47)

U notarial idoramdagi juda harakatchan va o‘zini tuta bilgan shogirtlarimdandir.

محمد نصيرالدين از فرزندان بسيار باهوش و دانای ديار طوس است.

*Mohammad Nasireddin az farzandān-e besyār bāhuš va dānā-ye diyār-e Tus ast.*(Setāre-ye tus, 52)

Muhammad Nasiriddin Tus diyorining juda dono va aqlli farzandlaridandir.

Ad’ektiv ma’noni ifodalayotgan *ā* suffiksli sifatdoshlar tarkibli kesimning ismiy qismi sifatida qo‘llanilishi va infinitiv iboralar tarkibiga kirishi

<sup>82</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.284.

mumkin; masalan, mashhur Eron olimi va siyosiy arbobi A.Kasraviy kitobining nomi:

زبان فارسی و راه رسا و توانا گردیدن آن.

... *Zabān-e fārsi va rāh-e rasā va tavānā gardidan-e ān.*

Fors tili va uning mukammal va buyuk tilga aylanishi yo‘li<sup>83</sup>.

Tadqiqot ishimiz davomida to‘plangan misollarni tahlil qilish orqali, *-ā* suffiksli hozirgi zamon sifatdoshlari orasida sifatga aylanganlari juda ko‘p uchrashi aniqlandi. Ularning ko‘pini to‘liq transpozitsiyaga aylangan deyish mumkin.

### 2.2.3. *-ān* suffiksi orqali yasalgan sifatdoshlar ad’ektivatsiyasi

Fors tilida sifatdoshlarning bu shakli ba’zi qardosh tillarda, jumladan, tojik tilida hozirgi zamon ravishdoshi, deb ataladi<sup>84</sup>.

Bu sifatdoshlar eng murakkab va bahs-munozarali hisoblanadi. Sababi *-ān* suffiksli hozirgi zamon sifatdoshlari bir tomondan, hech qanday struktur o‘zgarishlarsiz ravishdosh vazifasini bajara olishi bilan, ikkinchi tomondan esa, bemalol sifat turkumiga o‘ta olish xususiyati bilan xarakterlanadi. Eron tilshunoslari tomonidan tuzilgan grammatikaga oid asarlarda bu sifatdoshlar *sefat-e hāl* – holat, vaziyat sifati deb ataladi<sup>85</sup>.

Izofiy birikmaning ikkinchi bo‘lagi vazifasida ishtirok etganda *-ān* suffiksli hozirgi zamon sifatdoshi ham grammatik jihatdan sifat va otlardan farq qilmaydi, masalan *روی خندان ru-ye-xandān* “kuluvchi yuz”. Bu kabi o‘xshash misollardan o‘nlab keltirish mumkin edi, lekin ularning barchasi bir turdadir. Faqatgina ularning kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan semantik fe’llik belgisidan boshqa hech qanday fe’llik belgilar kuzatilmaydi.

<sup>83</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.284.

<sup>84</sup> Вахидов А.А. Причастия в современном персидском языке (функционально-грамматический анализ): Дис. ... канд.фил.наук. – М.1990. – С.05.

<sup>85</sup> O‘sha dissertatsiya: – С.105-107.

Demak, bu yerda ham to‘liq transpozitsiya haqida gap yuritsa bo‘ladi. Qolaversa tadqiqot ishi doirasida to‘plangan misollar ham shuni taqazo etishiga guvoh bo‘lamiz. Manbalarda uchratilgan quyidagi jummalarni tahlili esa, *an* -*ān* suffiksli hozirgi zamon sifatdoshi grammatik jihatdan sifatlardan farq qilmasligini va sifatlarga xos belgilarni o‘zida namoyon etishini ko‘rsatadi:

بدون اینکه چیزی بگویم، با چشمان گریان به اتاقم رفتم.

*Bedun-e inke čizi beguyam, bā češmān-e geryān be otāyam raftam.* (Bāγ-e māršāl, 136)

Biror narsa demay, yoshli ko‘zlarim bilan xonamga ketdim.

سپس، در زیر نور لِرزان پیه سوز، به چهره مهتابی و کشیده پسر چشم دوخت.

*Sepas, dar zir-e nur-e larzān-e pihsuz, be čehre-ye mahtābi va kašide-ye pesar čašm duxt.* (Setāre-ye tus, 8)

So‘ng, moychiroqning qaltiroq (xira) nuri ostida, bolaning oydin va cho‘ziq chehrasiga ko‘z tashladi.

این را نیز بگویم که من برای نصیرالدین آینده درخشانی پیشبینی می کنم.

*In rā niz beguyam ke man barāye Nasireddin āyande-ye deraxšāni pišbini mikonam.* (Setāre-ye tus, 31)

Shuni ham aytishim kerakki, men Nasiriddin uchun porloq kelajakni bashorat qilayapman.

Ushbu jummalarda kelgan *geryān* va *larzān* so‘zlari sifatdoshlik belgilaridan ko‘ra, ko‘proq sifatlik belgilarini namoyon etmoqda va aniqlovchi vazifasini bajarib, o‘zidan oldin kelgan so‘zni (izofiy birikmasining birinchi bo‘lagini) belgi va xususiyatini aniqlab kelmoqda.

### 2.3. Kelasi zamon sifatdoshlarining sifatga aylanishi

Kelasi zamon sifatdoshlari fe‘lning infinitiv shakliga –i suffiksini qo‘shish orqali yasaladi. Masalan: *ašamidan* + *i* → *ašamidani* – ichimlik, ichishga yaroqli.

Yu.A.Rubinichik kelasi zamon sifatdoshlarining semantik xususiyatlarini ko‘rib chiqilsa, ularning sifat hamda ot so‘z turkumi sifatida qo‘llanilishi ham ma’lum bo‘lishini va birinchi navbatda asosan ad’ektiv ma’noda qo‘llanilishini aytib o‘tadi. Hamda sifat o‘rnida qo‘llanilganda, kelasi zamon sifatdoshi aniqlovchi bo‘lib keladi va sifat daraja ko‘rsatkichlarini qabul qilishi mumkinligi haqidagi o‘z fikrlarini bildiradi.

U o‘z fikrini davom ettirib, kelasi zamon sifatdoshlari sifat so‘z turkumining barcha funksional va grammatik xususiyatlarini o‘zida namoyon eta olsada, bu sifatdoshlarni sifatga to‘liq transpozitsiya bo‘lishi haqida gapirish mushkulligini va bu holatda so‘z faqat qisman (funktional) transpozitsiya haqida ketishi mumkinligini aytadi. Shu bilan birga kelasi zamon sifatdoshlari substantivatsiyaga uchrashini, biroq ko‘pgina hollarda substantiv yasamalar negizida sifatdoshning ad’ektiv ma’nosi yotishini ta’kidlaydi va quyidagi misollarni keltiradi:

خوردنی *xordani* - “yebbo‘ladigan” → “yesa bo‘ladigan narsa”, “taom”, “ovqat”,

بافتنی *bāftani* - “to‘qishga yaroqli” → “to‘qilgan narsalar”, “trikotaj”,

پوشیدنی *pušidani* - “kiyishga yaroqli” → “kiyim”<sup>86</sup>.

Demak keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, kelasi zamon sifatdoshlari otlashsa ham uning negizida sifat ma’nosi yotadi va bu kelasi zamon sifatdoshlarining aksar qismiga tegishlidir. Quyidagi misollarni ham tahlil qilsak:

*harakat-e tankerhā-ye mavādd-e suxtani va fāsedšodani az sāat-e šeš-e sobh āyāz mišavad* - “yoqilg‘i va tez buziluvchi mahsulotlar ortilgan tankerlar harakati tongi soat 6 dan boshlanadi”<sup>87</sup>.

Ushbu jumladagi *suxtani* kelasi zamon sifatdoshi garchi otlashib yoqilg‘i ma’nosini kasb etgan bo‘lsa ham, uning negizida ad’ektivlik ya’ni, “yonadigan” sifat ma’nosi yotibdi, *fāsedšodani* bo‘lsa bu yerda aniqlovchi bo‘lib sifat

<sup>86</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.287,288.

<sup>87</sup> O‘sha kitob: - С.287.

vazifasida kelgan. Quyidagi jumlada esa kelasi zamon sifatdoshi asliy sifatlar kabi sifatning orttirma daraja ko‘rsatkichi –tarin suffiksini qabul qilib sifatlarga xos ravishda darajalanib kelgan:

... به بیان فشرده داستانی که از خواندنیتترین آثار نویسنده است می پردازیم.

... *be bayān-e fešorde-ye mazmun-e dāstan-i ke az xāndanitarin āsār-e navisande ast mipardāzim.* - “Biz muallifning eng qiziqarli (so‘zma so‘z: eng o‘qishga loyig‘i ) asarlaridan hisoblanadigan hikoyasini qisqa bayon qilishga kirishyapmiz”<sup>88</sup>.

L.S. Peysikov “Вопросы синтаксиса” kitobida kelasi zamon sifatdoshlari izofiy aniqlovchining rovida cheklangan holda qo‘llanilishini ta’kidlaydi va quyidagi misollarni keltiradi:

آب خوردنی *āb-e xordani* - “ichimlik suvi”,

مسئله حل نشدنی *mas’ale-ye halnašodani* - “yechib bo‘lmaydigan masala”,

فیلم تماشا شدنی *film-e tamāšāšodani* - “ko‘rishga loyiq film”,

حوادث فراموش نشدنی *havādes-e farāmušnašodani* - “esdan chiqmas hodisalar”<sup>89</sup>.

Demak, bundan xulosa shuki, kelasi zamon sifatdoshlari o‘tgan zamon sifatdoshlari kabi sifatdosh ma’nosida cheklangan holda qo‘llaniladi, ammo ad’ektiv ma’nolarni kasb etayotgan kelasi zamon sifatdoshlari izofiy birikmaning ikkinchi qismi, izofiy aniqlovchining rovida nisbatan ancha kengroq qo‘llaniladi. Masalan, manbalarda kuzatilgan quyidagi misollarni keltiramiz:

موقعیت را مناسب دیدم و ماجرای شنیدنی و در عین حال، پر درد و رنج لیلا را برای مریم و هلاکو و مژگان شرح دادم.

*Moʻeyyyat rā monāseb didam va mājārā-ye šenidani va, dar eyn-e hāl, por dard o ranj-e Leylā rā barāye Maryam va Halāku va Moʻžgān šarh dādam.* (Bāḡ-e māršāl, 221)

Vaziyatni munosib ko‘rdim va Layloning qiziqarli (eshitishga arzirli) va dard-u alamli mo‘jrosini Maryam, Haloku va Mo‘jgonga sharhlab berdim.

<sup>88</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2001. - С.288.

<sup>89</sup> Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. – М.: Издательство института международных отношений, 1959. - С.463.

سخنان پدر، کودک را سخت به هیجان آورد: هیجانی وصف نشدنی که سراسر وجودش را تسخیر کرده است.

*Soxanān-e pedar, kudak rā saxt be heyajān āvard; heyajāni vasfnašodani ke sarāsar-e vojudaš rā tasxir kard.*(Setāre-ye tus, 22)

Otaning soʻzlari, bolakayni qattiq hayajonga soldi; butun vujudini qamrab olgan tavsiflab boʻlmaydigan hayajon.

Yuqorida keltirilgan misollardagi kelasi zamon sifatdoshlari transpozitsiyaning sifatdosh-sifat konversion modeli orqali adʼektivatsiyaga uchrab, izofiy birikmaning ikkinchi qismi, aniqlovchi boʻlib kelib, sifatlarga xos belgilarni oʻzida aks ettirgan.

#### **2.4. Arabiy sifatdoshlarning sifatga aylanishi**

Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar kamdan-kam holatda oʻz semantik strukturasi toʻlalgicha saqlab qoladi. Koʻp hollarda arab tilidan oʻzlashmalar fors tiliga kimgach yangi, arab tilida mavjud boʻlmagan maʼno belgilari kasb qiladi, yaʼni maʼno kengayishi yuz beradi.

Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar asosan uchta soʻz turkumiga oid: ot, sifat (koʻplab sifatdoshlar ham shu jumlagacha kiradi), ravish. Arab tilidagi feʼl shakllari flektiv shaklda emas, qotib qolgan shaklda (ilmiy tilda “status constuct”) oʻzlashgan<sup>90</sup>.

Oʻzining shakliga koʻra arabiy oʻzlashmalar, asosan ismiy soʻz turkumlaridir. Bular arab masdarlari, (aniq va majhul darajadagi) sifatdoshlar, sifatlar, joy, kasb, aslaha nomlaridir. Bundan tashqari, arab tilidan baʼzi sonlar, teng bogʻlovchilar va undov soʻzlar ham oʻzlashtirilgan.

Arabiy ismlar shakllanishining negizida, uch va kamdan kam hollarda toʻrt undoshdan tashkil topgan feʼliy asos yotadi. Bu arab soʻzlarining skeletini tashkil qiladi. Ichki fleksiya, hamda prefiks va suffikslar orqali, bir ildizning oʻzidan turli

---

<sup>90</sup> Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. - T.: 2009. - B.45-46.

xil soʻzlar shakllanishi mumkin. Masalan, ب، ت، ك dan tashkil topgan ildizdan quyidagi soʻzlar yasaladi: كتاب ketāb “kitob”, كاتب kāteb “kotib”, مكتب maktab “maktab”, مكتوب maktub “maktub”, مكاتبه mokātebe “yozishma (bir biri bilan)”.

Arab feʼllariga, arab grammatikalarida bob deb nomlanadigan maxsus leksik-grammatik shakllar xosdir; ular sifat, miqdor, harakat yoʻnalishi va holat munosabatiga koʻra ildizning birlamchi maʼnosini oʻzgartiradi. Arab tilida hammasi boʻlib oʻn beshta bob mavjud, ulardan toʻqqizinchi bobdan tashqari, avvalgi oʻnta bob sermahsuldir. Fors tilida toʻqqizinchi bobdan yasalgan shakllar deyarli uchratilmaydi. Har bir bob turli xil feʼliy va feʼldan yasalgan shakllarni hosil boʻlishi uchun aniq modellarga ega va bir yoki bir nechta umumiy maʼnolar bilan xarakterlanadi (masalan, ikkinchi bob uchun kuchaytirish-undash maʼnosi, uchinchi bobga – yoʻnaltirilganlik, toʻrtinchiga, ikkinchi bob kabi – kuchaytirish-undash maʼnolari xarakterlidir).

Arab tili masdarlari va sifatdoshlari, boshqa ismiy yasamalar kabi, fors tilida, mustaqil leksik birlik sifatida qaraladi. Shunga qaramay, ularning hammasi qatʼiy aniq bir model orqali yasalishini inobatga olsak, arab boblarining paradigmasini bilishlik notanish soʻzlarni oʻqish va eslab qolishni osonlashtiradi, ularni toʻgʻri yozilishini taʼminlaydi, baʼzi hollarda esa lugʻat yordamisiz soʻz maʼnosi haqida tasavvur uygʻota olishi mumkin<sup>91</sup>.

Arabiy sifatdosh shakllar izofiy soʻz birikmada ikkinchi qism sifatida keng qoʻllaniladi, shuni ham aytish kerakki ular bu vazifada, ham mustaqil holda, ham tobeʼ soʻz bilan ifodalangan hollarda uchratiladi. Barcha arabiy sifatdosh shakllar eski grammatik anʼana boʻyicha sifatdosh deb atalishi va fors tilidagi arabiy sifatdoshlarning xususiyati va vazifalari haqida juda kam maʼlumotga egaligimiz sababli ham bu mushkul masala hisoblanadi. Islomdan soʻng turli davrlarda fors tiliga kirgan bu sifatdoshlar, albatta murakkab transformatsiya jarayonidan oʻtmay qolmagan. Bundan tashqari, fors tili arab tilining ichida boʻlgan va boʻlayotgan

---

<sup>91</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк персидского языка. В кн.: Персидско – русский словарь: в 2-х томах. - М.: Русский язык, 1983. - С.805,806.

jarayonlarni, xususan barcha tadqiqotchilar ko'rsatib o'tgan ad'ektivatsiya jarayonini aks ettirishi bilan ham hisoblashish zarur<sup>92</sup>.

L.S.Peysikov "Вопросы синтаксиса" kitobida izofiy birikmalarning ikkinchi qismi vazifasidagi arabiy sifatdosh shakllarni kuzata turib, keyinchalik fors tili sifatdoshlari muammosini hal etishga yordam beradigan ba'zi bir xulosalarga kelganligini aytadi va unga til materiallari arabiy sifatdoshlarni 3 guruhga taqsimlash imkonini berganligini ko'rsatadi. Biz bevosita bizning tadqiqot ishimizga doir bo'lgan birinchi va uchinchi guruhlarni ko'rib chiqamiz:

Birinchi guruh o'z ichiga fors tilida ot va sifat so'z turkumi sifatida namoyon bo'luvchi arabiy sifatdosh shakllarni va predloglar qatoriga o'tib ketgan so'zlarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda, u birinchi guruhga shunday arabiy shakllarni kiritdikki, ularni ishonch bilan sifatdosh emas deb ayta olamiz. Bularga : عاقل āyel "oqil, aqlli", محدود mahdud "chegaralangan", متخصص motaxasses "mutaxassis", مستخدم mostaxdem "xizmatchi", معلم moallem "o'qituvchi", عايق āyey "yo'l boshlovchi", مضر mozerr "zararli", مفيد mofid "foydali", متكبر motakabber "mag'rur", مستقل mostayel "mustaqil", متضاد motazādd "qarama-qarshi" va hokazolar, hamda راجع به rāje be, دال بر dāll bar, دایر به dāyer be "haqida" va ba'zi bir boshqalarni ham kiritadi<sup>93</sup>.

Mofid "foydali", mozerr "zararli" kabi turdagi so'zlar fors tili sifat so'z turkumiga kiritilishi kerak, chunki ular ushbu so'z turkumlarining barcha xususiyatlarini o'zida qamrab olgan. Masalan mofid "foydali" turidagi so'zlar izofiy so'z birikmalarida sifatdan hech farq qilmaydi.

*Uchinchi guruh* fe'liy-ad'ektiv xususiyatlarni aniq namoyon etuvchi va kelib chiqishi forsiy bo'lgan sifatdoshlar va ularga xos bo'lgan barcha sintaktik vazifalar bilan bir qatorda ishlatiladigan mustaqil so'zlarni o'z ichiga oladi. Bularga: حامل hāmel "ortilgan", واقع vāye "joylashgan", مركب morakkab "tashkil topgan", مربوط marbut "bog'langan", محصور mahsur "o'rab olingan", حاضر hāzer "hozir bo'lgan", مقيم moyim "yashovchi, turuvchi", حاوی hāvi "o'z ichiga

<sup>92</sup> Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. – М.: Издательство института международных отношений, 1959. - С.83.

<sup>93</sup> O'sha kitob: - С.84.

oluvchi”(shuningdek *mohtavi* محتوی), *motazammen* متضمن “qamrab oluvchi”, متعلق *motaalley* “taalluqli”, منتخب *montaxab* “tanlangan”, ملابس *molabbes* “qayta kiyingan”, متشکل *motašakkel* “tashkil topgan”, محروم *mahrūm* “mahrum bo‘lgan” va shunga o‘xshashlar kiradi. Barcha bu sifatdoshlar fors tilida, forsiy kelib chiqishga ega bo‘lgan آمیخته *āmixte*, ألوده *ālude*, بازگشته *bāzgašte* va shu turdagilarga o‘xshagan sifatdoshlar sifatida qo‘llaniladi. Ular bir qancha fe‘l xususiyatlarini namoyon etadilar va sifatdoshli-sifat iboralarini tashkil qiladilar<sup>94</sup>.

Olib borilgan tadqiqot davomida manbalarda ham arabiy kelib chiqishga ega bo‘lgan sifatdoshlar uchratildi. Ularni o‘rganish davomida arabiy sifatdoshlarining sifat so‘z turkumiga oid barcha grammatik belgilarni o‘zida mujassam etganligiga guvoh bo‘ldik. Qolaversa ular ham xuddi kelib chiqishi forsiy bo‘lgan sifatdoshlar kabi izofali so‘z birikmalarining ikkinchi qismi vazifasida keng qo‘llanilishi aniqlandi. Masalan quyidagi jummalarni fikrimizga dalil qilib keltiramiz:

با باز شدن درهای خارجی و پخش صدای گوینده که ما را به سوار شدن به اتوبوس های مخصوص دعوت می کرد، گفتگویمان نیمه کاره ماند.

*Bā bāz šodan-e darhā-ye xoruji va paxš-e sedā-ye guyande ke mā rā be savār šodan be otobushā-ye maxsus da ‘vat mikard, goftoguyemān nimekāre mānd.* (Bāy-e māršāl, 222)

Kirish eshiklari ochilishi va bizni maxsus avtobuslarga chiqishni taklif qilayotgan yetakchining ovozi tarqalishi bilan suhbatimiz yarimchala qoldi.

فریومدی با نگاهی نافذ، چهره مصمم و صدای رسا گفت.

*Faryumadi, bā negāhi nāfez, čhrei mosammam va sedā-ye rasā goft.*(Setāre-ye tus, 71)

Faryumadi, o‘tkir nigohi va qat’iy chehrasi va baland ovoz bilan dedi.

سپس قیافه مصمم و جدی به خود گرفت.

*Sepas yiyāfe-ye mosammam va jeddi be xod gereft.*(Setare-ye tus, 57)

So‘ngra jiddiy va qat’iy qiyofaga kirdi.

<sup>94</sup> Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. – М.: Издательство института международных отношений, 1959. - С.90,91.

Keltirilgan ushbu misollardagi *otobushā-ye maxsus* izofiy birikmasidagi I bob majhul daraja sifatdoshi *maxsus*, *negāhi nāfez* izofiy birikmasidagi I bob aniq daraja sifatdoshi *nafez*, *čehrei mosammam* va *γiyāfe-ye mosammam* izofiy birikmasidagi X bob majhul daraja sifatdoshlari *mosammam* izofiy birikmasining ikkinchi qismi vazifasida ishtirok etayapti, aniqlovchi vazifasida kelib sifatlarga xos xususiyatlarni namoyon etmoqda. Keyingi jumlalarda ham xuddi shunday holatlar kuzatiladi:

با اشتها شیر می خورد و این امر نشان می داد که از سلامت کامل برخوردار است.

*bā eštehā šir mixord va in amr nešān midād ke az salāmat-e kāmēl barxordār ast.* (Bāγ-e māršāl, 460)

Ishtaha bilan sut ichardi va bu ish uning to‘liq salomatligini ko‘rsatardi.

دو سرباز مصلح این سو و آن سوی در بزرگ ایستاده بودند.

*do sarbāz-e mosallah in su va ān su-ye dar-e bozorg istāde budand.*  
(Setare-ye tus, 109)

Qurollangan ikki askar darvozaning u va bu tarafida turgan edilar.

صادق کبوتر مجروح را توی بغل گرفته بود.

*Sādey kabutar-e majruh rā tu-ye bayal gerefte bud.* (Del-e kur, 104)

Sodiq jarohatlangan kabutarni quchoqlab olgan edi.

Quyida keltirilgan jumladagi *zāker* I bob aniq darajadagi sifatdoshi ham, shaxsning doimiy va sobit belgisini ko‘rsatmoqda, fors tilidagi *zēkrkonande* hozirgi zamon sifatdoshi anglatgan ma’noga teng bo‘lgan ma’noni ifodalamoqda.

آدم اگر گناهکار باشد قبر به مرده آدم فشار می آورد تا هر چه شیر از مادرش خورده از

دماغش بیرون بیاید، مگر آنکه آن شخص ذاکر باشد که در این صورت صاف به بهشت می رود.

*ādam agar gonahkār bāšad γabr be morde-ye ādam fešār miāvarad tā har če šir az mādarāš xorde az damāyaš birun beyāyad, magar ānke ān šaxs zāker bāšad ke dar in surat sāf be behešt miravad.* (Del-e kur, 34)

Agar odam gunohkor bo'lsa, qabr odamning murdasini to'nasidan ichgan barcha suti burnidan chiqib ketmagunicha siqadi, agarda u odam zikr qiluvchi bo'lsa, bu holda u to'g'ri jannatga kiradi.

Bundan tashqari tadqiqot ishimizda arabiy sifatdoshlar ham xuddi fors tili sifatdoshlari kabi ad'ektivatsiyaga uchraganda doimiy, sobit belgilardan tashqari asliy sifatlarga xos bo'lgan daraja ko'rsatkichlarini qabul qilib, darajalana olishlari aniqlandi:

واضحتر بگویم، کار تو در این مدت شبیه معجزه بوده است.

*Vāzehar beguyam, kār-e to dar in moddat šabih-e mojeze bude ast.*

(Setare-ye tus, 56)

Aniqroq aytsam, ushbu muddatdagi sening qilgan ishing mo'jizaga o'xshar edi.

هر کس عقیده اش را در باره نابسامانی هایی که روز به روز مخصوصتر می شد، بیان می کرد.

*har kas ayideaš rā dar bāre-ye nābasāmānihāyi ke ruz be ruz maxsustar*

*mišod, bayān mikard.* (Bāy-e māršāl, 451)

Har kim kunsayin maxsusroq bo'lib borayotgan tartibsizliklar haqida fikrini bayon qilardi.

Ushbu jumalardagi I bob aniq daraja sifatdoshi *vāzeh* va I bob majhul daraja sifatdoshi *maxsus*, sifatning qiyosiy daraja ko'rsatkichi *-tar* suffiksini qabul qilib, qiyosiy ma'noni kasb etgan.

Bitiruv malakaviy ishi davomida ko'rib chiqilgan materiallarda arabiy sifatdoshlar haqida ma'lumot deyarli yo'qligi ushbu mavzu bo'yicha tadqiqot olib borishda qiyinchilik tug'dirdi. Biz mutolaa qilgan fors tilidagi grammatikaga oid asarlarda ushbu mavzuga aloqador bo'lgan hech qanday arzirli ma'lumot topilmadi. Faqatgina rus eronshunoslarining ba'zi kitoblarida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Bundan xulosa shuki fors tilida arab tili sifatdoshlari, xususan ularning ad'ektivatsiyasi hali yetarlicha tadqiq etilmagan, ammo ularning fors tili so'z yasalishi jarayonidagi ahamiyatini, hamda fors tili leksikasi boyishida o'rni

kattaligini hisobga olsak, ushbu mavzu chuqur tadqiqotni talab qilishi ma'lum bo'ladi. Bitiruv malakaviy ishi davomida arab tili sifatdoshlarining ad'ektivatsiya hodisasiga uchrash jarayoni olimlarning fikrlari, hamda manbalarda uchragan misollar orqali (ularni tahlil qilgan holda) ko'rsatib o'tildi. Ammo, bu tadqiqotning debochasi hisoblanadi, keyingi tadqiqot ishida arab tili sifatdoshlarining ad'ektivatsiya hodisasiga uchrashini alohida bir bob miqyosida tadqiq qilish bizningcha maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

1. An'anaviy tarzda sifatdosh deb ataluvchi, fe'ldan yasalgan shakllar, ya'ni  $\bar{a}$ ,  $\bar{an}$ ,  $\bar{ande}$ ,  $\bar{e}$  suffikslari orqali yasalgan sifatdoshlar va kelasi zamon sifatdosh shakllari, hamda kelib chiqishi arabiy bo'lgan sifatdosh shakllar, so'z yasovchi tranpozitsiya orqali ad'ektivatsiyaga uchraydi va aksar hollarda fe'l bilan bog'liq bo'lmagan yangi ma'nolarni kasb etadi, izofali so'z birikmalarining ikkinchi qismi vazifasida keng qo'llaniladi.

2. Bosh so'z bilan birikib, ular aniqlovchilik, makon, zamon munosabatlarini ifodalovchi atributiv so'z birikmalarini hosil qiladi. Bu belgilarning ko'rinishi, u yoki bu sifatdoshlarning leksik tarkibi, uning ad'ektivatsiya darajasi va fe'llik belgilarini yo'qotishi, shu shakllarning o'zi leksik tarqala olishi hamda tarqala olmasligi va izofiy yoki ko'makchili ad'ektiv iboralarni hosil qila olishi orqali aniqlanadi.

## XULOSA

1) Faqat to‘la ma‘noli so‘z turkumlarigina ma‘no o‘zgaruvchanligiga moyil bo‘ladi. (konversiya – ad’ektivatsiya hodisasiga uchraydi).

2) So‘z semantikasining kengayishi orqali yangi va qo‘shimcha ma‘no ifodalanadi va bu holatda so‘z nafaqat yangi ma‘noni, balki yangi grammatik xususiyatlarni ham oladi. Aksar hollarda yangi ma‘no kasb etadi, hatto ba‘zi hollarda yangi ma‘no birlamchi ma‘nodan semantik uzilib, omonim so‘zlar shakllanishi ham mumkin.

3) So‘zning fonetik tizimi saqlangan holda, uning ma‘no tarkibi o‘zgarib boradi va bu ma‘no o‘zgarishlari bir paytda turli tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

4) Tadqiqot ishimiz davomida manbalarda 242 ta misol to‘plandi va shundan 148 tasi (61.2%) o‘tgan zamon sifatdoshlariga tegishli, 48 tasi (19.8%) hozirgi zamon sifatdoshlariga oid va 14 tasi, (5.6%) kelasi zamon sifatdoshlariga oid, hamda 32 tasi (13.3%) arabiy sifatdoshlarga tegishli misollardir.

5) Ushbu uchragan misollarni sodda, prefiksli va murakkab fe’llardan yasalgan sifatdoshlarga ajratib, foiz chiqarildi:

**O‘tgan zamon sifatdoshi** - 148 ta (100%)

Sodda fe’llardan yasalgan o‘tgan zamon sifatdoshi - 60 ta (40,5%);

Prefiksli fe’llardan yasalgan o‘tgan zamon sifatdoshi - 10 ta (6,7%);

Murakkab fe’llardan yasalgan o‘tgan zamon sifatdoshi - 78 ta (52,7%);

**Hozirgi zamon sifatdoshi** - 48 ta (100%)

Sodda fe’llardan yasalgan hozirgi zamon sifatdoshi - 38 ta (79,1%);

Prefiksli fe’llardan yasalgan hozirgi zamon sifatdoshi uchramadi;

Murakkab fe’llardan yasalgan hozirgi zamon sifatdoshi - 10 ta (20,8%);

Shu bilan birga hozirgi zamon sifatdoshlarini **انده** -ande, **ا** -ā va **ان** -ān suffikslari orqali yasalgan shakllarga ajratildi.

**انده** -ande suffiksi orqali yasalgan hozirgi zamon sifatdoshi - 16ta (100%):

Sodda fe’llar - 6 ta (37,5%);

Prefiksli fe'llar uchramadi;

Murakkab fe'llar - 10 ta (62,5%);

**ا -ā suffiksi orqali yasalgan hozirgi zamon sifatdoshi** - 16 ta (100%);

Sodda fe'llar - 16 ta (100%);

Prefiksli fe'llar uchramadi;

Murakkab fe'llar uchramadi;

**ان -ān suffiksi orqali yasalgan hozirgi zamon sifatdoshi** - 16 ta (100%);

Sodda fe'llar - 16 ta (100%);

Prefiksli fe'llar uchramadi;

Murakkab fe'llar uchramadi;

**Kelasi zamon sifatdoshi** - 14 ta (100%)

Sodda fe'llardan yasalgan kelasi zamon sifatdoshi - 6 ta (42.8%);

Prefiksli fe'llardan yasalgan kelasi zamon sifatdoshi uchramadi;

Murakkab fe'llardan yasalgan kelasi zamon sifatdoshi - 8 ta (57.1%);

6) BMI yakunida to'plangan misollar tahlili o'tgan (148ta-61.2%) va hozirgi zamon (48ta-19.8%) sifatdoshlarining ad'ektivatsiyaga uchrashi sermahsul ekanligi, kelasi zamon sifatdoshi (14ta-5.6%) va arabiy sifatdoshlarning (32-13.3%) nisbatan kammahsul ekanligi aniqlandi.

7) An'anaviy tarzda sifatdosh deb ataluvchi, fe'ldan yasalgan shakllar, ya'ni ا -ā, ان -ān, انده -ande, ة -e suffikslari orqali yasalgan sifatdoshlar va kelasi zamon sifatdosh shakllari, hamda kelib chiqishi arabiy bo'lgan sifatdosh shakllar, so'z yasovchi tranpozitsiya orqali ad'ektivatsiyaga uchraydi va aksar hollarda fe'l bilan bog'liq bo'lmagan yangi ma'nolarni kasb etadi, izofali so'z birikmalarining ikkinchi qismi vazifasida keng qo'llaniladi.

8) Bosh so'z bilan birikib, ular aniqlovchilik, makon, zamon munosabatlarini ifodalovchi atributiv so'z birikmalarini hosil qiladi. Bu belgilarning ko'rinishi, u yoki bu sifatdoshlarning leksik tarkibi, uning ad'ektivatsiya darajasi va fe'llik belgilarini yo'qotishi, shu shakllarning o'zi leksik tarqala olishi, hamda tarqala olmasligi va izofiy yoki ko'makchili ad'ektiv iboralarni hosil qila olishi orqali aniqlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

### O‘zbek va rus tilidagi adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
2. Алимова Х.З. Сўз ясовчи транспозиция масаласига доир “дарий тили материаллари асосида” // шарқшунослар анжумани. – Т.: 2010 №4. 6-11 бет.
3. Asqarova M., Yunusov R., Yo‘ldoshev M., Muhamedova D. O‘zbek tili praktikumi. – T.: Iqtisod-moliya. 2006.
4. Асқарова М., Абдурахмонов Х. Ўзбек тили грамматикасининг практикуми. – Т.: Уқитувчи, 1981
5. Содиқова Т.Қ. Форс тилида транспозиция усули орқали от ясалиши: Магистрлик диссертацияси. – Т. 2007.
6. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
7. Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – T.: 2009.
8. Аҳманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов. энциклопедия, 1969.
9. Вахидов А.А. Причастия в современном персидском языке (функционально-грамматический анализ): Дис. ... канд. фил. наук. – М. 1990.
10. Восканян Г.А. Русско-персидский словарь. – М.: «Русский язык», 1986.
11. Кубрякова Е.С. Теория номинации и словообразование // Языковая номинация (Виды наименований). – М.: Наука, 1977. – С. 292.
12. Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. – М.: Изд-во ИМО, 1959.

13. Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд. МГУ, 1973.
14. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. - М.: Изд. МГУ, 1975.
15. Персидско – русский словарь в двух томах под. ред. Ю.А.Рубинчика. М.: Русский язык, 1983.
16. Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк персидского языка Персидско – русский словарь: в 2-х томах. М.: Русский язык, 1983.
17. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. –М., 2001.
18. Тимофеев К.А. О транспозиции временных форм глагола в русском языке. – История языка. – Новосибирск, 1999.
19. Шанский Н.М. Основы словообразовательного анализа. – М.: Учпедиз., 1953.
20. Шанский Н.М.. Очерки по русскому словообразованию. М. 1968.

#### **Fors tilidagi adabiyotlar:**

21. ابو القاسم نجفی. "فرهنگ عا میانه" تهران، ۱۳۷۸.
22. پرویز نائل خانلری. دستور زبان فرسی. تهران. انتشارات طوس. 1992/1370
23. دکتر حسن احمدی گیوی، دکتر حسن انوری. دستور زبان فرسی. ویرایش دوم. انتشارات فاطمه. سال 13/27/2005
24. پنج استاد: ابدالعظیم قریب، ملک الشعراى بهار، بدیع الزمان فروزانفر، جلال همایى، رشید یاسمى. دستور زبان فرسی. انتشارات دانشگاه تهران. تهران. 1992/1371
25. محمد رضا باطنی. فارسی زبان عقیم؟ مقاله از مجموعه مقالات "پیرامون زبان و زبان شناسی"، تهران 1997/1371
26. محمد فلاحی مقیمی. فرهنگ زبان شناسی و زبان آموزی. تهران 1998/1376

### **Fors tilidagi manbalar:**

27. اسماعل فصیح. دل کور. نشر البرز. تهران، 1375.
28. حسن کریم پور. باغ مارشال. جلد دوم: سرگذشت ناهید و... نشر واحدی ۱۳۷۹.
29. محمد حسین کیان پور. ستاره طوس. رومان برای نو جوانان. ۱۳۸۷.

### **Internet saytlari:**

30. [www.turklib.uz/?category=science&altname=ozbek\\_tili\\_-\\_ilmiy\\_maruzalar\\_toplami](http://www.turklib.uz/?category=science&altname=ozbek_tili_-_ilmiy_maruzalar_toplami)
31. [www.dissercat.com/content/rol-konversii-kak-sposoba-slovoobrazavaniya-v-sovremennom-frantsuzskom-yazyke-na-materiale-n...](http://www.dissercat.com/content/rol-konversii-kak-sposoba-slovoobrazavaniya-v-sovremennom-frantsuzskom-yazyke-na-materiale-n...)
30. [http://ru.wikipedia.org/wiki/Причастие\\_\(лингвистика\)](http://ru.wikipedia.org/wiki/Причастие_(лингвистика))
31. [www.openlibrary.org/OL10628368W/Ad\\_ektivatsiya\\_prichastii\\_v\\_so\\_vremennom\\_russkom\\_literaturnom\\_yazyke](http://www.openlibrary.org/OL10628368W/Ad_ektivatsiya_prichastii_v_so_vremennom_russkom_literaturnom_yazyke)